



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**Pedagogika fakulteti
Pedagogika kafedrası**

Maxmudova Dilsora Akbar qizining

**“5111800-Maktabgacha ta‘lim” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

**“Milliy urf-odatlar va qadriyatlarni o‘quvchilar ongida tarkib toptirishning
o‘ziga xos xususiyatlari”
mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar :

o‘q. U.Nazirov

“Himoyaga tavsiya etildi”

Pedagogika fakulteti

dekani: _____ dots. Sh.Nurillayeva

“ _____ ” _____ 2016 yil

Qarshi – 2016

Mundarija

KIRISH.....3

I BOB. MILLIY URF-ODATLAR VA QADRIYATLARNI O‘QUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Sharq mutafakkirlarining asarlarida milliy urf-odatlar va qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga singdirish masalalari9

1.2. Milliy urf-odat va qadriyatlar tizimi, ularning tuzilishi va o‘ziga xos jihatlari18

1.3. Mustaqillik yillarida milliy-ma’naviy meros va qadriyatlarga munosabatning o‘zgarishi va yangilanish tendensiyalari23

II BOB. MILLIY URF-ODATLAR VA QADRIYATLARNI O‘QUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISHNING MUHIM OMILLARI VA MEXANIZMLARI

2.1. Milliy-ma’naviy meros va qadriyatlarning shaxs ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishdagi roli30

2.2. O‘quvchi shaxsini kamol toptirishda milliy an’analar, urf-odat va qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati36

2.3. O‘quvchilarning ma’naviy tarbiyasi va axloqiy kamolotida xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati46

2.4. Tajriba sinov ishlari va uning natijalari tahlili.....59

XULOSALAR.....62

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....65

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma'naviy merosi, ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma'naviy hayotimizni o'rganish, milliy urf-odatlarimiz va an'analarimiz, umuman olaganda, milliy ma'naviyatimizga daxldor barcha boyliklarimizni qaytadan tiklash davr talabiga aylandi. Mamlakatimizda yashovchi barcha fuqarolarda o'zlikni anglash, milliy g'urur, o'tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni bunyod etishga qaratilgan ulug'vor maqsadlarni amalga oshirish kabi tuyg'ular kamol topib, ularning bugungi va ertangi kunga bo'lgan ishonchi tobora ortib bormoqda.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq davlat o'tmish madaniy merosimizni qaytadan tiklash, odamlarning qalbida tutqunlikda yotgan qadriyatlarga keng yo'l ochish siyosatini amalga oshirdi. Har bir tadbir o'zining amaliy yechimiga ega bo'lishi bilan birga xalqqa ozodlik shabadasini yetkazish maqsadini ko'zlagan holda amalga oshirildi. Millat o'tmishi va kelajagi haqidagi mulohazalar, ajdodlarimiz kashfiyotlaridan hosil bo'lgan g'urur tuyg'usi o'zbekning qalbidan o'rin ola boshladi: din, madaniy meros, qadriyatlar, milliy g'urur haqida hadiksiramay, baralla mulohaza yuritish imkoni yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni "Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar" deb nomlangan alohida bo'limida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy merosi, an'analari, urf-odatlari hamda umum bashariy qadriyatlariga suyanish, uni amalga oshirishda samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish zarurligi haqidagi muhim vazifalar belgilab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov "Tafakkur" jurnalining 1998 yil 2-sonida jurnal bosh muharriri savollariga bergan javoblarida xalq va mamlakat kelajagini o'tmish qadriyatlarisiz tasavvur qilmasligi, bugungi kunda amalga oshirilayotgan har bir tadbirda o'tmish madaniyatimiz, milliy an'analarimiz poydevor vazifasini o'tashi mumkinligini ta'kidlab o'tgan edi. Xususan, yurtboshimiz milliy g'oya, milliy mafkura

masalasiga to‘xtalar ekan, birinchi navbatda yana o‘tmish haqida gapiradi: “Milliy mafkura, avvalambor, o‘zligimizni, muqaddas an‘analarimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo‘yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart”¹, - deyiladi savol-javobning “Mafkura o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi ko‘prikdir” qismida.

Milliylik millatni milat, xalqni xalq sifatida namoyon qiluvchi, saqlab qoluvchi va rivojlanish bilan kundan kun, yildan yil sayqal topib boruvchi yuksak ma‘naviy tushunchadir. Insonning, jamiyatga ta‘siri shu milliylikka yo‘g‘rilgan bo‘lib, uning har bir hatti – harakatlari va aqliy imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi. Egallangan va shakllangan urf-odatlar, qadriyatlar ma‘naviyatning darajasini belgilab beradi. Aslida ma‘naviyat obyektivlashgan qadriyatlar va urf-odatlar tizimi bo‘lib, ma‘naviy madaniyat sifatida esa millatning o‘z-o‘zini anglash, ruhiyatini, irodasini, ongini, ijtimoiy amaliyotini takomillashtirish imkoniyatlarining va vositalarining erishilgan darajasidir, jamiyatning madaniy saviyasidir.

Milliy an‘analar va qadriyatlar millatning yuzaga chiqqan aqliy va ruhiy salohiyat hamda ijodkorlik qobiliyatidir. Bu salohiyat va qobiliyat asrlar davomida toblanib, uning tarixiy bunyodkorlik, diniy va dunyoviy tajribasini o‘zida mujassam etgan. Shu jihatdan milliylikka va uning tarkibiga kiruvchi barcha marosim va urf-odatlarga barqarorlik xos. Shunday bo‘lsagina bunday qadriyatlar asrlar osha xukmronlik qiladi va millatga nisbatan muqim, mustahkam fikrlar aytiladi. Bu esa yoshlar ongida ham bo‘linish, ikkixillik, beqarorlik tuyg‘ularini oldini olishga va kelajak avlad millat g‘ururi, miliy madaniyat va ma‘naviyatni yuksaltiruvchi va uni ruhiyatida o‘rin olishini ta‘minlaydi.

Millatning tanazzuli – milliy qadriyatlarning tanazzulidar! Bu oqibat natijasida ushbu qadriyatlarning egasiz qolish hafini tug‘diradi. Insoniyat - tarixi muayyan etnoslarning vujudga kelishi taraqqiyoti va tanazzuli, ularning o‘rniga

¹ Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. “Tafakkur” jurnali, 1998 y. 2-son, 8-bet.

boshqalari vujudga kelishidan iborat jarayonlardir, deya e'tirof qilishni butunlay noto'g'ri deyish qiyin. Bunday qarash esa o'z navbatida g'oyat muhim va dolzarb masalaga, ya'ni millat milliy qadriyatlarining obykti va egasi sifatida o'z-o'zini saqlab turmog'i, o'zining avlodlarini asrab-avaylamog'i lozim, degan masalaga olib keladi. Shu bois, biz bitiruv malakaviy ishimiz uchun tanlagan "Milliy urf-odatlar va qadriyatlarni o'quvchilar ongida tarkib toptirishning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusi hozirgi kunda o'ta dolzarbligi bilan xarakterlidir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiyalash bugungi kunda pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardandir. Milliy urf-odatlar va qadriyatlardan ta'lim-tarbiya tizimida foydalanish xususida gap borar ekan, respublikamiz olimlari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni qayd etib o'tishni lozim deb o'ylaymiz. Mazkur muammo bo'yicha Pedagogika fani sohasida K.Hoshimov, M.Ochilov, S.Temirova, O.Musurmonova, S.Nishonova, U.Mahkamov, M.Inomova, M.Quronov, S.Ochilov, N.Ortiqov, Q.Qurbonboyev, J.Toshmatova, Sh.Olimov va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari e'tiborga loyiqdir. Ular o'z ilmiy izlanishlarida bolalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo'yicha qator yutuqlarni qo'lga kiritganlar va mazkur jarayonda milliy tarbiya asoslaridan samarali foydalanishga erishish hamda barkamol insonni tarbiyalashning milliy modelini ishlab chiqishga uringanlar.

Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarimiz biri bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish masalalari M.Haydarov, X.Sanaqulov, I.Valixo'jayeva, D.Abdurahimova, Z.Qurbaniyazova, M.Maxmudova, Z.Bobobekova va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida chuqur o'rganilgan. Shu bilan birga xalq maqollarini to'plash, ularni saralash va mazmunini izohlash bo'yicha G.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov, Sh.Shomahmudov, Sh.Shorahmedov, R.Safarova, O.To'rayeva, Sh.Abdujalilova, E.Gapparov, I.Karimov kabi pedagog olimlarning xizmatlari kattadir.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb

vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda yaratilgan bu betakror an'ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o'rganish hamma davrlarda ham olimlar oldida muhim bir qator muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo'ygan. Bu borada J.Hasanboyev, M.Turopova, O.Hasanboyeva, A.Mavrunov, U.Qoraboyev va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, xalq pedagogikasining ta'lim oluvchi shaxsiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish muammosini o'rganish bo'yicha M.Ochilov, A.K.Munavvarov, S.Axmedov, S.Ochilov, O.Musurmonova, M.Inomova, S.Nishonova va boshqalar tomonidan doktorlik ishlari bajarilganligini alohida kayd etish joiz.

Tadqiqot ishining maqsadi: Vatanimiz kelajagi va taraqqiyotini ta'minlovchi yoshlarimiz ongi va dunyoqarashi turli – tuman yot g'oyalar bilan emas, boshqa millat madaniyatidan farqli bo'lgan o'zimizning milliy – madaniy merosimiz bilan boyitish va uni keyingi avlod vakillariga topshirishni ta'minlash.

Tadqiqot ishining obykti: Milliy urf-odatlar va qadriyatlarning shaxs ongi va dunyoqarashiga ta'siri muammolari o'rganilgan sharq mutafakkirlari asarlari va mamlakatimiz pedagog olimlarining ilmiy-uslubiy asarlari. Tajriba-sinov ishlarida Qarshi pedagogika kolleji va Qarshi shahridagi 7-son umumiy o'rta maktabning 60 nafar o'quvchilari ishtirok etdilar.

Tadqiqot ishining predmeti: Sharq mutafakkirlari va mamlakatimiz pedagog olimlarining barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish ahamiyati haqidagi qarashlari hamda bu g'oyalarning ta'lim-tarbiya samaradorligiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini tushuntirib berish jarayonidir.

Tadqiqot ishining vazifalari:

- 1) O'rganilayotgan muammo bo'yicha falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarni o'rganish va ma'lumotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish;
- 2) Milliy urf-odatlar va qadriyatlarning yoshlar ongi va dunyoqarashining yuksalishidagi ahamiyatini o'rganish;

3) Milliy urf-odatlar va qadriyatlarimizning asrlar davomida sayqallanib, xalqimiz tomonidan avaylab-asrab kelinishining sabablarini hayotiy misollar yordamida tushuntirib berish;

4) Milliy urf-odatlar va qadriyatlarga sho‘rolar davridagi munosabat, mustaqillikdan keyingi yillarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tiklanishi masalalarini qiyosiy tahlil etish;

5) Milliy urf-odatlar va qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ijobiy ta’sirini hayotiy misollar yordamida tushuntirib berish;

6) O‘quvchi-yoshlarda ijobiy xarakter xislatlarini shakllantirishda xalq pedagogikasi, jumladan xalq og‘zaki ijodining o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatish va boshqalar.

Tadqiqot ishining asosiy metodlari: Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy urf-odatlar va qadriyatlardan foydalanish masalalari o‘rganilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, taqqoslash, induksiya, deduksiya, qiyosiy tahlil va tarixiy materiallarni ilmiy jihatdan o‘rganish, suhbat, test va boshqa metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot ishining metodologik asoslari: Pedagogika, psixologiya va yosh psixologiyasi fanlarining asosiy prinsiplari, shaxsga taalluqli yondashuvlar, konsepsiyalar, pedagog olimlar va sharq mutafakkirlarining barkamol insonni tarbiyalashga oid ta’limotlarining mohiyati, Prezident I.A.Karimov asarlari, "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va boshqa hukumat qonunlarining mohiyati.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi:

1) Mavzuga taalluqli qonuniyat va yondashuvlarning maxsus mezonlar yordamida tahlil etilganligi va umumlashtirilganligi.

2) Milliy urf-odatlar va qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi rolga oid mavjud bilimlarning muayyan nazariy va amaliy materiallar bilan boyitilganligi.

3) Bola shaxsining oilada va maktabdagi ta’lim-tarbiya jarayonida rivojlanishiga oid g‘oyalarning yangi ma’lumotlar bilan boyitilganligi.

4) O'quvchi shaxsi va uning xarakteri xususiyatlarini shakllantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarning aniqlanganligi hamda tavsiflab berilganligi.

5) O'quvchilar ma'naviy tarbiyasi va axloqiy kamolotida milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanishning ahamiyati tushuntirib berilganligi va hokazo.

Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati: Tadqiqot natijalari pedagogika, psixologiya, yosh psixologiyasi va boshqa fanlarni yangi ma'lumotlar, mexanizm va qonuniyatlar bilan boyitadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati: tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlarida pedagogika, psixologiya, yosh psixologiyasi fanlarini o'qitishda, mazuga oid uslubiy qo'llanma, maqola va ma'ruza matnlarini yaratishda, yoshlar ongini boyitish, an'analarimizga va qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatini oshirish bilan bog'liq amaliy tadbirlarni tashkil etishda samarali foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va ko'lami. BMI 66 bet hajmda kompyuterda yozilgan bo'lib, kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. MILLIY URF-ODATLAR VA QADRIYATLARNI O‘QUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Sharq mutafakkirlarining asarlarida milliy urf-odatlar va qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga singdirish masalalari

Respublikamizning bugungi rivojlanish jarayonida mustaqil huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo‘lidan borayotgan davlatimiz uchun barkamol avlod tarbiyasi ustuvor siyosat darajasiga ko‘tarildi. Bunda yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda xalqimizning asrlar davomida yaratgan boy ilmiy, ma’naviy, axloqiy merosi, mutafakkirlar va allomalarimiz qoldirgan ko‘plab ilmiy asarlar, kashfiyotlar, umrboqiy qadriyatlar va an’analardan foydalanish muhimdir. Buyuk ajdodlarimizning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko‘plab sohalarga oid asarlari, mamlakatimizning turli tarixiy shaharlarida topilgan asori-atiqalari butun jahonning bebaho mulki hisoblanadi.

Bu borada o‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari ijodi yetakchi o‘rin egallaydi, deyishga bugungi kunda asos bor. Jumladan, algebra faniga asos solgan Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, astronomiya fani asoslarini yaratgan Ahmad Farg‘oniy, o‘rta asrlarda Sharq ilm-faniga ulkan hissa qo‘shgan Ma‘mun akademiyasi tashkilotchisi va rahbari Abu Rayhon Beruniyning 150 dan ortiq fanlarning turli sohalari bo‘yicha yaratgan ilmiy asarlari nafaqat o‘z davri, balki bugungi kunda yuksak texnologiyalar asri uchun ham zarur bo‘lgan kashfiyotlarni taqdim etdi. Tibbiyot sohasida o‘z shonu-shuhratini muhrlay olgan Abu Ali Ibn Sino 450 dan ortiq asarlari bilan dunyo fani va madaniyati tarixiga zarhal harflar bitilgani alohida g‘urur hissini uyg‘otadi.

Bugun o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yetarlicha e’tibor qaratmaydigan va bu yo‘lda o‘zining tarixiy, madaniy, axloqiy merosini asrab-avaylashga, ularni boyitishga va ko‘paytirishga munosabat bildirmaydigan har tomonlama uyg‘un rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, o‘z qarash va yondashuviga, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxsni kamol toptirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydigan har qanday davlat,

jamiyat tarix hamda taraqqiyot yo‘lidan chetda qolib ketishi mumkin. Shu nuqtai-nazardan qaralganda birinchi navbatda o‘tmish ajdodlarimizning milliy merosimizni, ayniqsa yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashga qaratilgan boy tajribalarini, ushbu masalaga bag‘ishlangan asarlarini, qarashlarini chuqur o‘rganish va ulardan bugungi kunda samarali foydalanish imkoniyatini ko‘rsatib berish o‘ta zarur muammolardan hisoblanadi.

O‘rta asr Sharq mutafakkirlari orasida Abu Nasr Forobiy (873-950) merosi va uning inson kamoloti haqidagi ta’limoti ta’lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. U 70 dan ortiq tilni bilgan va 160 dan ortiq ilmiy asar yaratgan bo‘lib, uni Sharqda Arastudan keyingi “Muallimi soniy” – “Ikkinchi muallim” deb ataganlar.

Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ixso al-ulum”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma’nolari to‘g‘risida” asarlarida ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlari o‘z ifodasini topgan. U o‘z ishlarida ta’lim-tarbiyaning uzviy birgalikda amalga oshirish to‘g‘risida gapirar ekan, ammo har birining inson kamolotga erishuvida o‘z o‘rni bor, deb hisoblaydi. Mutaffakir inson kamolotida o‘zaro munosabatlarning, ayniqsa, o‘qituvchining roli muhimdir deydi [28,25]. Demak, Forobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb hisoblaydi. Forobiy ta’lim-tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olimdir. Forobiy “Musiqqa haqida katta kitob” degan ko‘p jildli kitobi bilan o‘rta asrning yirik musiqashunosi sifatida ham mashhur bo‘lgan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) qomusiy olim sifatida juda ko‘plab asarlari bilan mashhur bo‘lgan allomadir. U barcha illatlarning asosiy sababchisi ilmsizlikdan deb biladi. Ilmni egallashda shaxsda intilish, qiziqish va muhitning roli muhimdir, deydi. Beruniy inson kamolotida axloqiy tarbiyaning o‘rniga alohida e’tibor bergan holda “O‘tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Kitob-as-Saydana”, “Al-Qonuni al-Ma’sudiy”, “Geodeziya” kabi asarlarida bu qarashlar o‘z aksini topganini ko‘ramiz. Insonni axloqiy kamolotga yetish muammosi uning butun ta’lim-tarbiya tizimida markaziy

o‘rin egallaydi. Beruniy ilmiy merosini, ta‘lim-tarbiyaga oid qarashlarini chuqur o‘rganar ekanmiz, uning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari nafaqat o‘z zamonasi uchun, balki hozirgi davr ta‘lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyat kasb etadi[10,56].

Sharq va Yevropada ma‘rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganligi uchun Shayx-ur-Rais, Sharqda “Olimlar boshlig‘i”, Yevropada “Olimlar podshosi” nomi bilan mashhur bo‘lgan, o‘rta asrlar Sharq allomalaridan biri Abu Ali Ibn Sino turli sohalarda juda ko‘plab ilmiy asarlarning muallifi, shuningdek ta‘lim-tarbiya sohasida ham o‘z pedagogik qarashlariga ega bo‘lgan yetuk tadqiqotchi olimdir.

Tarixdan ma‘lumki, Ibn Sino ham o‘z davrining alloma va mutafakkirlari kabi o‘zining ta‘lim-tarbiyaga oid qarashlarini mavjud ijtimoiy falsafiy jarayonlar bilan bog‘liq holda o‘z asarlarida ifodalagan. U bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash zarurligini uqtiradi. Maktabga barcha kishilarning farzandlari tortilishini va barchasi o‘qitilishi hamda tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o‘qitishga qarshi bo‘lgan. Ibn Sino ta‘limotida bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin u og‘zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko‘rinishdagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir talabada haqiqiy bilim hosil qilishi, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirishi asosiy maqsad bo‘lgan.

Shu jihatdan olim o‘zining “Xay ibn Yakzon” asarida (Uyg‘oq o‘g‘li Tirik) kishilarning did-farosatini o‘stirish, fikr doirasini kengaytirish bilan bog‘liq ta‘lim-tarbiyada, ilm-fanda mantiq ilmiga bag‘ishlangan aqliy tarbiyaga katta ahamiyat beradi. Ibn Sino axloqqa oid asarlarini “Amaliy hikmat” deb ataydi. Olimning fikricha axloq fani – kishilarning o‘ziga va boshqalarga nisbatan xatti-harakat meyorlari hamda qoidalarini o‘rganadi[31,102].

Ibn Sinogacha kamolotga yetishda jismoniy tarbiyaning ta‘siri haqida bir butun yaxlit ta‘limot yaratilmagan edi. Ibn Sino birinchi bo‘lib jismoniy tarbiyaning ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan bir butun tizimini yaratdi. Ibn Sino merosining asosiy qimmat va qudrati uning keng hamda kuchli gumanistik

mazmunidir. Shuning uchun ham Ibn Sino jahon madaniyatining buyuk siymosi, insoniyatni hurmat qilgan olimi, tabibi, eng katta faylasufi, tabiatshunosi, insonshunosi, mashhur ensiklopedisti, umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida o'ziga xos o'rin egallagan mutafakkiri sifatida tan olingan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari pedagogika tarixida ta'limiy-axloqiy usulda yozilgan barcha asarlarning tamal toshi, desak bo'ladi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari turkiy tilda yaratilgan bo'lib, bu asarda Qoraxoniylar davlatini mustahkamlash uchun idora usullarini yaratish, barcha tabaqa va toifadagi kishilarning xulq-atvori, jamiyatdagi tutgan o'rni, davlatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan mustahkamlash, davlatning mustahkamligining birinchi tayanchi - insonni ma'naviy kamolga yetkazish masalalari qamrab olinadi. Yusuf Xos Hojib bu murakkab vazifani hal etishda faqat donishmand, qomusiy mutafakkir sifatidagina emas, balki tarbiyashunos olim sifatida ham o'zini namoyon etdi. Chunonchi, u barcha ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi muomala-munosabatlarni yoritish bilan birga, turli kasb egalarining kasbiy talabli va jamiyatning axlokiy tamoyillarini tarannum etish bilan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos uslubni yaratdi.

"Qutadg'u bilig" baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasihat, ta'lim-tarbiyaga oid yetuk didaktik asar, har tomonlama yetuk insonni "tarbiyalaydigan darslik" ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Shunga ko'ra, u yaratgan "Qutadg'u bilig" asari ta'lim-tarbiya tarixi, uning nazariy masalalari, komil insonni- shakllantirishda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asar ta'limiy-axloqiy asar sifatida pedagogika tarixida eng yuqori o'rinlarda turadi. Mutafakkir o'zining axloqiy qarashlarini, ya'ni ijtimoiy munosabatlar, jamiyat a'zolari barcha tiplari o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni amaliyotga tayangan holda yoritadi. Bu axloqiy xulq-odob tamoyillari, talab va vazifalari butun asar davomida qahramonlarning o'zaro munozaralari asosida ifodalangan[31,113].

Yana bir ta'limiy-axloqiy asar Kaykovusning "Qobusnoma" asari bo'lib, pandnoma turkumidagi dastlabki asar sifatida ming yilga yaqin davrdan beri

xalqni, ayniqsa, yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda qo‘llanma bo‘lib kelmoqda. “Qobusnoma” asari esa insonni ma’naviy kamolotga yetkazishda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur asar juda ko‘p sharq va g‘arb tillariga tarjima etilgan. Kaykovus “... barcha fikr va tushunchalarim sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, har hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to‘rt bobda bayon etdim”, deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog‘langan holda kamolga yetkazish yo‘llari va usullarini bayon etgan[31,118]. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida esa yoshlar tarbiyasida javonmardlik talablaridan eng muhimi – bu yuksak axloqlilik tarbiyasi ekanligi keltiriladi. U yoshlarda insonga nibatan insoniy munosabatda bo‘lish, adolatlilik, samimiylik, saxiylik, mardlik kabi xislatlarni tarkib toptirishni istaydi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadini amalga oshirishga harakat qiladi.

Kaykovusning axloqiy o‘g‘itlari kitobda ota-ona haqqini bilish bilan boshlanadi. Unda Kaykovus Qur‘on va Hadislardagi talablardan kelib chiqqan holda o‘zining nuqtai nazarlarini bayon qiladi: “O‘z farzanding sening haqingda qanday bo‘lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo‘lg‘il, nedinkim sen ota-onang haqida ne ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-ona daraxtga o‘xshaydir”. Kaykovus oilada ota vazifasi va burchiga alohida e‘tibor beradi. Farzand tug‘ilganda avvalo unga yaxshi ot qo‘yish, undan so‘ng aqli va mehribon murabbiyga topshirish, o‘qitish, ulg‘aya boshlaganda kasb-hunar o‘rgatish, harbiy ish bilan tanishtirish, so‘ng suvda suzishni o‘rgatish kerak, deydi[31,121].

Kaykovus otaning burchi yana o‘z farzandiga adab ham o‘rgatishda, deb ta’kidlaydi. U ilm, hunar va adabni farzandga meros qoldirish har bir otaning farzandi haqqini bajargani, deb hisoblaydi. Kaykovus otalarning o‘z farzandlariga nisbatan qattiqqo‘l bo‘lishini talab etadi. Lekin bolalarni jazolashni otaning o‘zi emas, murabbiy tomonidan bajarilishini istaydi. Chunki otaning o‘z qo‘li bilan farzandini jazolashi unda adovat hissini paydo qiladi. Lekin otadan farzand hayiqib tursin, agar u hayiqmasa, ota-onani xor qiladi, deb ta’lim beradi. Kaykovusning

hayotda xulq-odob qoidalariga qanday amal qilish haqidagi, yoshlarni adolatparvar, insonparvar, sahovatli, qanoatli, muruvvatli bo'lishi haqidagi qarashlari, ayniqsa diqqatga sazovor. Ular yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarama-qarshilik asosida bayon etiladi. Kaykovus yuksak axloqiylikning yana bir tarkibiy qismi do'stlik deb biladi va do'st tutmoq odobi haqida fikr bayon etar ekan, uning asosiy talablarini talqin etadi[31,122].

Demak, Kaykovusning "Qobusnoma" asari XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Bunda o'sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo'lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog'liq faoliyat turlari: otda yurish, merganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar san'ati, ifodali o'qish, xattotlik san'ati, she'r yoza olish, musiqiy bilimga ega bo'lish, shatranj va nard o'yinini bilish kabilar ham o'z ifodasini topgan.

Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham o'zining badiiy asarlari bilan bir qatorda ta'limiy-axloqiy asarlarida ham o'zi orzu etgan yetuk inson qiyofasini yaratadi va komil insonga xos bo'lgan axloqiy fazilatlar sirasiga qanoat, sahovat, himmat, muruvvat, vafo, to'g'rilik, hilm, tavoze', adab va hokazo xislatlarni kiritadi. Mazkur xislatlar tarkib topgan inson o'zgalarga nisbatan yomonlik va razillik qilmasligi, shuningdek, barkamol insonlarning baxt-saodatga erishishlari va ular yashaydigan jamiyatning har jihatdan ravnaq topishi shubhasiz ekanligini ta'kidlaydi.

Allomaning tasavvuridagi komil inson o'z qiyofasida eng yuksak insoniy fazilatlar mujassam eta olishi lozim. Chunonchi, u ijodkor, qobiliyatli, shu bilan birga ilm-fanga nisbatan muhabbatli bo'lmog'i zarur. Alisher Navoiyning qarashlariga ko'ra, ana shunday sifatlarning sohibi bo'la olgan insongina o'z kuchi hamda aqlu zakovatiga ishonadi. O'z kuchi va aqlu-zakovatiga qattiq ishona olgan insongina turli qiyinchiliklarga bardosh bera oladi, u o'ta murakkab muammolarni ham yechimini topa olishga qodir. Ilm-fan sirlaridan xabardor bo'lishning inson ahamiyatini yoritir ekan, alloma ayni o'rinda ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini

ko'rsata oluvchi omil sifatida ta'riflaydi. Ushbu fikr mutafakkir tomonidan yaratilgan "Nazmul-javohir" asarida quyidagicha bayon etiladi:

*Kim olim esa nuqtasida barhaq de oni,
Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki yo 'q ilm axmaq de oni,
Majlisdagi ilm bo 'lsa uchmaq de oni.*

Mazkur to'rtlikning mazmunida ilmi, oqil odam o'z maqsadiga erishish yo'lida uchraydigan har qanday qiyinchilikni yengib o'tadi, kim ilmni o'ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, zero, ilm insonning baxt-saodatini ta'minlashga xizmat qiladi degan g'oya o'z aksini topgan[34].

Alisher Navoiy ilm o'rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqazuvchi omil sifatida ta'riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar yordamida kishilarni ilmi va ma'rifatli bo'lishga undaydi.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida ta'limiy-axloqiy jihatdan eng yuksak sanalgan asarlardan biri Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq" ("Haqiqatlar sovg'asi") asaridir. Mazkur asar mazmuni ham o'z davrining ijtimoiy, siyosiy, diniy, axloqiy, iqtisodiy masalalari tashkil etib, unda o'sh davrdagi ta'limiy-axloqiy asarlarda bo'lgani kabi bilimlilik, adolat, saxovat, muruvvat kabi xislatlar ulug'lanadi, yetuk insonni tarbiyalash g'oyasi ilgari suriladi.

Asar o'n to'rt bobdan iborat. Dostonning dastlabki 4 bobi an'anaga ko'ra muqaddima bo'lib, beshinchi bobdan asosiy qism boshlanadi. Bu boblarda, asosan bilimning ahamiyati, jaholatning zarari, til odobi, dunyoning foniyliigi, saxovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqiylikning eng muhim xususiyatlari tarannum etiladi. Ahmad Yugnakiy o'zining insonni kamolga yetkazish haqidagi qarashlari bilan pedagogik fikr taraqqiyotida o'z o'rniga ega. U inson kamoloti uchun muhim bo'lgan aqliy va axloqiy qoida va talablarni o'zida mujassamlashtirgan "Hibatul-haqoyiq" asarida komil insonni shakllantirishning o'ziga xos tizimini yaratdi. Bunda u insonni kamolga yetkazishning eng muhim va asosiy mezonlaridan biri – insonning bilimga ega bo'lishi, ya'ni unga aqliy tarbiya berish deb bildi. So'ng ma'naviy-axloqiy kamolga yetkazuvchi so'z odobi, insondagi halollik, rostgo'ylik,

saxiylik, kamtarlik, samimiylik, qanoat, chinakam do'st bo'lishni eng muhim insoniy xislatlar sifatida ta'riflaydi va bularga qarama-qarshi bo'lgan jaholat, baxillik, ochko'zlik, yolg'onchilik, takabburlik, zolimlik, shoshqaloqlik kabi millatlarni qoralab, ularning yomon oqibatlarini ko'rsatadi[31,126].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq" asari xalqni, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy kamolotga yo'llaydi, ijtimoiy hayotdagi kishilar o'rtasidagi ziddiyatlarni ahillik, saxovat, yaxshilik bilan hal etib, ochko'zlik, baxillik, jaholatni ilm-ma'rifat bilan bartaraf etishni da'vat etadi. "Hibatul-haqoyiq" asaridagi ma'rifiy-tarbiyaviy masalalar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanganligi uchun ham bu asar necha asrlardan buyon ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda.

Buyuk mutafakkir Jaloliddin Davoniy ham o'z asarlarida inson va uning kamoloti, ilm-fan va uning jamiyatdagi o'rni, kasb-hunar, yuksak insoniy fazilatlarni egallash haqida fikr yuritgan. Davoniyning asosiy asarlari: "Axloqi Jaloliy", "Risalat-ul-xuruf", "Risolayi isboti vojib", "Risola ul-mufradot", "Risolayi fi tavjix ul-tashbih", "Risola dar elm un-nafs", "Tariqati tarbiyat ul-avlod" kabilardan iborat.

Davoniyning ta'lim va axloqqa oid qarashlari Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiyning ijtimoiy fikrlari bilan ko'p jihatdan hamohangdir. Uning "Axloqi Jaloliy" asari ta'lim-tarbiya masalalari o'rganilgan yirik asar bo'lib, u uch qismdan iborat. Birinchi qism – axloq fani, ikkinchi qism – "Odamning ichki holati", oilaviy hayotga bag'ishlangan, uchinchi qism "Shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati" deb atalib, unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar xususida fikr yuritilgan. Asarda ilm taraqqiyotining jamiyatda tutgan ahamiyati bayon etiladi. Davoniy insonning komillik darajasi boshqalar bilan munosabatiga ham bog'liq ekanini ta'kidlar ekan, jamiyatda adolat hukmron bo'lsa, inson baxt-saodatga erishishi mumkin, deydi. Shuning uchun u "Axloqi Jaloliy" asarida jamiyatni adolatli – fozil shaharga va johil shaharlarga bo'ladi.

Asarda aqliy va axloqiy tarbiya, insonda ijobiy xislatlarni shakllantirish masalalari batafsil yoritilgan. Mutafakkir o'z asarida insonga ijtimoiy mavjudot

sifatida qaraydi, inson faqat jamiyatda, kishilar orasida, ular bilan munosabatda shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. Davoniy ta'lim-tarbiya jarayoni haqida fikr yuritar ekan, bolalarning yaxshi fazilatlarini egallashida ijtimoiy muhit va tarbiya muhim ahamiyatga molikligini ta'kidlaydi. U odam tayyor tug'ma fazilatlar bilan tug'ilmaydi, balki u tashqi muhit va jamoa hamda tarbiya ta'sirida yaxshi yoki yomon xislatlarni egallaydi, deydi [34].

Olim bola o'ta ta'sirchan va taqlidchan bo'lishini ta'kidlar ekan, yaxshi fazilatni ham, yomon fazilatni ham tezda qabul qilishi mumkinligini alohida uqtirib o'tadi. Uning fikricha, bolaning ta'lim-tarbiya natijasida odob-axloqli bo'lishi uning keyingi istiqboldagi taraqqiyotini belgilaydi. Chunki bola har kuni ko'radigan, muloqotda bo'ladigan odamlar va buyumlar uning xulqiga ta'sir etadi. Uning ta'kidlashicha, ota va ona bola tarbiyasi uchun bab-baravar mas'uldirlar. Ularning har ikkisi bolaning yaxshi xulq-odob qoidalarini, muayyan bir kasbni egallashiga ko'maklashishi, ilm-fan va kasb-hunar egallashning moddiy asosi bo'lmish kiyim-kechak, kerakli buyum va jihozlarni yetkazib berishi uchun jonbozlik ko'rsatishi kerak. Ota-ona bolaga jamiyatda mavjud bo'lgan xulq-odob qoidalarini singdirishga, yurish-turish, uyish-ichish, o'z qilmishi uchun mas'uliyat sezish, shirinsuxan bo'lish, yaxshilik, ezgulik kabi oddiy axloq qoidalarini egallashiga yordam berishi kerak[31,183].

“Bola tarbiyasida ota-ona bilan bir qatorda maktabga chiqqandan so'ng muallim ham javobgar sanaladi”, – deydi olim. Buning uchun muallimning o'zi ham yaxshi tarbiya topgan bo'lishi shart. Shu o'rinda Davoniy o'qituvchining shaxsiy sifatleri, o'quvchi va o'qituvchining o'rtasidagi munosabatlarga alohida e'tibor qaratadi. Olim o'qituvchini “ma'naviy ota” sifatida ulug'laydi. Chunki ota bolani jisman hayotga keltirib, jismonan tarbiyalasa, o'qituvchi uni ma'naviy jihatdan kamol toptiradi, deydi olim. Ruh qanchalik badanga yaqin tursa, o'qituvchi ham tarbiya borasida ota-onaga shunchalik yaqinligini ko'rsatadi. Ota-ona bilan o'qituvchi tarbiyasini taqqoslar ekan, ustozning tarbiyalash usuli, metodlari ota-onanikidan yuqori turishi kerakligini ta'kidlaydi. Chunki ota-ona bu borada o'qituvchichalik qurollanmaganligini uqtiradi[31,184].

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, Davoniyning insoniy fazilatlarga ega bo'lishda ta'lim-tarbiyaning o'rniga katta ahamiyat berganligi, umuman uning qarashlari pedagoglar uchun qimmatli manba ekanligini alohida e'tirof etish kerak.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyada har bir xalqning o'z udumi, tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyoqarashi, tarbiya vositalari bo'ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi kerak. Umuman, mutafakkir-bobokalonlarmizning maktab-maorifining asosi bo'lgan ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, axloq-odob bobidagi orzu-istak va talablari bugungi kun pedagogikasiga ham benazir bir xazina sifatida hissa qo'shishga arzigulik salmoqqa egadir.

1.2. Milliy urf-odat va qadriyatlar tizimi, ularning tuzilishi va o'ziga xos jihatlari

Mustaqil O'zbekistonimizning kelajagiga g'oyaviy asos bo'ladigan milliy mafkurani shakllantirish va yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy qadriyatlarimizga hurmat, vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida ma'naviyatli qilib voyaga yetkazishimiz bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Jamiyatimizning har tomonlama rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati aholining, ayniqsa, yosh avlodning aqliy, axloqiy, huquqiy bilimi, tarbiyasi, jismoniy sog'lomligi, estetik madaniyati va ma'naviyatining yuksak darajada shakllanganligiga bog'liq. Yoshlarimizning har tomonlama kamolga yetishi, ma'naviyatli barkamol shaxs sifatida shakllanishi hamda ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari bevosita, ularga beriladigan maqsadli va to'g'ri g'oyaviy ta'lim-tarbiyaga asoslanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Albatta, biz tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalarni qadriyat deb bilamiz"² – deb, ta'kidladilar. Bu ta'rif orqali davlatimiz rahbari qadriyat tushunchasiga sodda va lo'nda qilib, to'laqonli ta'rif berdi.

2. Karimov I. A. Yusak ma'naviyat-engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. B-82

Kishilar ma'naviy olamining shakllanishi va taraqqiyoti, ularning ma'naviy boyishi uchun qadr-qimmatga ega bo'lgan narsa-hodisalar ma'naviy qadriyatlar deyiladi. Ular inson faoliyati, mehnati, yaratuvchanligi, ijodkorligining mahsuli hisoblanadi. Masalan, rassom, shoir, faylasuf, fizik olim san'at asarlari, ilmiy tadqiqotlar, olam haqidagi asarlarning mualliflari sifatida ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchilaridir. Bunday ijodiy jarayonda ulkan aqliy kuchlar sarflandi, tafakkurning eski andozalari bartaraf etiladi. Olimlarning fikrlari, shoirlarning qaynoq kechinmalari, ilmiy kashfiyotlar sirlari predmetli - moddiy tusga kirar ekan, ishlab chiqarishning boshqa sohalari ham bunga safarbar etiladi. Yaratilgan buyumlar oddiy emas, balki madaniyat predmetlari, ma'naviy ishlab chiqarish predmetlari, buyumlari sifatida yuzaga keladi. Ularda bilimning asoslari, insoniy munosabatlarning tajribalari gavdalanadi, bizning ongimizga go'zallik, ezgulik, haqiqat to'g'risidagi tasavvurlarni olib kiradi. Ularning qadriyat kategoriyasi sifatida e'zozlanishining boisi ham ana shunda. Shunday qilib, ma'naviy qadriyatlar - kishilar ma'naviy faoliyati mahsuli, bilishning murakkab jarayoni natijasi o'laroq, bilim, hayot, qarash, malakalar samarasidir.

Qadriyatlar milliy, diniy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'linib ular orasida doimiy o'zaro munosabat mavjud. I.A.Karimov "Farzandlarimizga ana shu haqiqatlarni, ya'ni dunyoviy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to'g'ri tushuntirib berishimiz lozim. Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to'ldirmas ekan, bugungi qunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topish oson bo'lmaydi"³. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir yosh avlodga qadriyatlar to'g'risida mukammal bilim, ko'nikmalar berilishi kerak.

Milliy qadriyatlarimizni yoshlar qalbi va ongiga singdirishda ta'lim va tarbiyaning turli shakllari muhim kasb etadi. Adabiyotlarda "Vatan" deb fido bo'lgan bahodirlarni, milliy uyg'onishga da'vat etgan fidoyi ziyolilarning ishlarini keng targ'ib qilib, o'quvchi, talaba va yoshlarimizning vatanparvarlik his tuyg'ularini shakllantirish lozim.

3.Karimov I. A. Yusak ma'naviyat-engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. B-82

Jamiyatimiz a'zolarini, eng avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalash, g'oyaviy-siyosiy, huquqiy jihatdan chiniqtirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish, milliy o'zligini anglash, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda darsliklar, o'quv qo'llanmalari, monografiyalar va risolalarning ahamiyati beqiyos. Dunyodagi jamiyatlar, xalqlar, millatlar, ijtimoiy guruh va qatlamlar bir-biriga aynan o'xshash bo'lmaganidek, ularning maqsad va manfaatlarini o'zida nazariy ifodalaydigan mafkuralarning va qadriyatlarning ham xilma-xil bo'lishi tabiiy bir holdir. Dunyoda mavjud bo'lgan xilma-xil mafkuralardan biri – bu bizning milliy istiqloq mafkuramizdir. Milliy istiqloq mafkurasi insoniyat tarixidagi eng ajoyib g'oyalarga, ya'ni, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ijtimoiy adolat, tenglik, hamjihatlik, o'zaro totuvlik, inoqlik, do'stlik-birodarlik haqidagi ta'limotlarga asoslanganligi bilan e'tiborga sazovordir[23,72].

O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaroning, eng avvalo, yosh avlodning ongiga milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, insonparvarlik va odamiylik g'oyalarini singdirish milliy istiqloq mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. Milliy istiqloq mafkurasidagi asosiy g'oyalar, qoidalar respublikamiz barcha fuqarolarining ongidan joy olib, muqaddas aqidaga aylansa, ana shundagina oldimizda turgan buyuk maqsadlarga erisha olamiz, hamda milliy qadriyatlarimizni saqlab qolamiz.

Vatanparvarlik his-tuyg'ulari bilan bir qatorda yoshlarimizda mustaqillik tafakkurini shakllantirish ham g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etishning muhim omillaridan. Mafkuraviy kurashlar kuchaygan bugungi kunda aholi, ayniqsa, yoshlar qalbida ona Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning o'chmas ruhi bo'lgan ona tilimizga, otabobolarimizdan meros muqaddas dinga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirish maqsadga muvofiqdir[33].

Umuman olganda, milliy qadriyatlarimizni yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish orqali ularda mafkuraviy immunitet hosil qilish zamon amri, davr talabi.

Buni amalga oshirishda har bir kelajak yoshlarining faolligi omilkorligi talab etiladi. Milliy qadriyatlarimizni yoshlarimiz qalbiga singdirish xaqida soʻz borar ekan, qalb va ong degan soʻzlar hamisha yonma-yon tilga olingan. Chunki, qallda eʼtiqod shakllanadi, ongda esa dunyoqarash shakllanadi. Yoshlarimizda, xalqimizda milliy eʼtiqod va dunyoqarash asoslarini, milliy qadriyatlarimiz haqidagi tushunchalarni shakllantirish davr talabidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov taʼkidlagidek; “Har qanday ijtimoiy hodisa singari milliy qadriyatlarning ham oʻziga xos rivojlanish qonuniyati bor. Bu haqiqatni unutish, milliy qadriyatlarni biryozqlama, sunʼiy ravishda ulugʻlash va ideallashtirishga urinish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish salbiy oqibatlarga olib kelishi hayotda koʻp bora oʻz isbotini topgan. Ayniqsa, Oʻzbekiston kabi koʻpmillatli, koʻp konfesessiyali mamlakatda bunday harakatlar oxir-oqibatda millatlararo ziddiyat, millatchilik, milliy va diniy betoqatlik kabi noxush holatlarga olib kelishi mumkin”⁴.

Mustaqil Oʻzbekistonning kuch-qudrat manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatiga sodiqligidadir. Oʻzbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmatini, or-nomusi va shon-sharafi uning oʻta mehribonligi va sof vijdoniga asoslangandir. Milliy iftixor ham gʻurur tuygʻusi singari milliy ong mazmunining muhim omilidir. Dunyoda har bir millat oʻziga xos feʼl-atvorga egadir. Shuning uchun ham turli mintaqada yashayotgan xalqlar turlicha yashash tarziga, bir-biriga oʻxshamagan urf-odatlariga ega boʻlishadi. Jumladan, oʻzbeklar diyonat, or-nomus, sharm-hayoni, mehmonnavozlikni ijtimoiy hayotning hamma jabhalarida muhim fazilat deb qabul qilishgan. Shunday hislatlar baʼzan bu faqat “oʻzbekona fazilat” deb yuritiladi, yoinki “Biz sharq farzandi ekanligimizdan oʻzimizning urf-odatlarimizdan faxrlanamiz”⁵.

Udumiy qadriyatlarimiz xalqimizning maʼnaviy dunyoqarashi koʻzguvidir. Xalqning qadr-qimmatini, milliylikni, donishmandligi uning udumiy qadriyatlarida aks etadi. Zero, biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, maʼnaviyati orqali bilamiz. Xalq ommasi madaniyat ijodkorigina emas, balki uni toʻxtovsiz ravishda

⁴ Karimov I. A. Yusak maʼnaviyat-engilmas kuch. -T.: Maʼnaviyat, 2008. B-82

⁵ Karimov I.A. Oʻzbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram boʻlmaydi. -T.: 2005. 153-b.

boyituvchi, rivojlantiruvchi, avloddan-avlodga yetkazib beruvchi hamdir. Barcha moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari inson aql-idroki, iste'dodi va mehnati mahsulidir. Dunyodagi har bir millatga xos milliy mentalitetni xarakterlovchi omillar mavjuddir. Milliy mentalitet (lotincha "mens" – aql-idrok, zehn, fahm-farosat) – millatning tarixan shakllangan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, yashash va fikrlash tarzi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda kamolga yetgan qobiliyati va ruhiy quvvatidir. Bu tushuncha millatga xos an'analar, rasm-rusumlar, urf-odatlar, diniy e'tiqodni ham o'z ichiga oladi. O'z navbatida, u muayyan millatga mansub kishining turmush tarzi, fikrlashi, dunyoqarashini ham bir qadar belgilaydi, gohida uni baholash uchun asos bo'ladi[33].

O'zbek xalqining mentalitetiga xos urf-odat va an'analarning shakllanishi uzoq o'tmish bilan bog'lanadi. O'zbek xalqiga xos mentalitet uzoq tarixiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o'rnashuv, o'zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topgan. Shuningdek, aqliy-intelektual imkoniyatlar va ruhiy psixologik qarashlarni qamrab olgan. O'zbek xalqining etnik jihatdan ko'ptarmoqli va sertomir ekanligi uning mentalitetida barcha urug' va ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy jihatlar, jamoa manfaatlarini himoya qiluvchi fazilatlarining rivoj topishini taqozo etib kelgan. Xalqimiz fe'lidagi bag'rikenglik, xotamtoylik, mehmondo'stlik, o'zaro hamkorlikka moyillik, g'am-anduhli paytlarda nochor kimsalarga hamdardlik, yelkadoshlik fazilatlarini ana shu jamoaviy yakdillikni ta'minlash, til va dil, fikr, amal birligini saqlash ehtiyojlaridan tug'ilgan va sayqal topgandir[14,11].

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi"⁶. Bundan

⁶ Karimov I. A. Yusak ma'naviyat-engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. B-96

ko‘rinib turibdi-ki, har bir yosh avlod o‘z tarixini, qimlarning merosxuri ekanligini, anglab olmasdan turib ma’naviy yuksaklikka erishib bo‘lmaydi.

Xullas, o‘zbek xalqining qaysiki urf-odati, an’anasi, bayramini olmaylik – xoh u nikoh marosimi yoki chilla davri bo‘lsin, xoh u Navro‘z yoki Mehrjon sayli bo‘lsin, xoh Ro‘za hayti yoki Qurbon hayiti bo‘lsin – ularning har birini o‘tkazish va nishonlashda o‘zbek xalqi milliy mentalitetiga xos ko‘rinishlari va innovatsiyalari ko‘zga tashlanadi.

1.3. Mustaqillik yillarida milliy-ma’naviy meros va qadriyatlarga munosabatning o‘zgarishi va yangilanish tendensiyalari

O‘zbekiston Respublikasida demokratik, erkin, huquqiy, bozor iqtisodiyotiga asoslangan va fuqarolik jamiyat qurishning muhim omillaridan biri milliy va umuminsoniy qadriyatlarning, xususan milliy-ma’naviy merosning tiklanishi va yangilanishidir. Istiqlol sharofati bilan xalqimizning milliy-ma’naviy merosini tiklash va yangilash hamda ular ongiga yetkazish va turmushiga singdirish muhim dolzarb vazifalardan biri sifatida kun tartibiga ko‘ngdalang qo‘yildi. Chunki Prezident I.A.Karimov alohida ta’kidlaganidek: “Mustaqilligimizning dastlabki kunlardanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosimizni tiklash davlatimiz siyosatining nihoyatda muhim ahamiyatga molik ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoldi. Bunday o‘zgarishlarni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat bo‘lgan uzviy jarayon edi, deb baholash mumkin”⁷.

Yuqorida ta’kidlanganlardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, istiqlool odamlar ongida madaniy-ma’naviy, ahloqiy va milliy qadriyatlarni tiklash hamda rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratdi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida milliy-ma’naviy meros va qadriyatlarni tiklash va targ‘ib qilishni yaxshilash uchun bir qator qonun, farmon va qarorlar qabul qilinganligini alohida ta’kidlash joiz.

⁷ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O‘zbekiston, 1997. -B.137-138 betlar

Tan olib aytish lozimki, milliy-ma'naviy merosga yangicha munosabat davlat miqyosida yurtboshimiz Islom Karimov rahbarligida amalga oshirila boshlandi. Eng avvalo milliy ma'naviyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobolarimiz-Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimizning milliy va ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari jahonda va mamlakatimizda nishonlanib, ruhlari shod etildi va asarlari nashr etildi hamda qadamjolari obod qilindi. Islom olami allomalarining diniy qarashlari, ijodiy faoliyatlari o'rganilib, tavallud topgan kunlari bayram qilindi. Ularga yodgorlik maydonlari yaratilib haykallar o'rnatildi. Bu tadbirlar yurtimizda iymon, diyonatning qaytadan tiklanishiga olib kelmoqda. Ularning ma'naviy merosi bugungi kunda xalqimizga yangi jamiyat qurishda ma'naviy kuch-qudrat bag'ishlanmoqda, jamiyatimizni ma'naviy yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Prezident I.A.Karimov biz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab, nega shu ulug' ajdodlarimizning tabarruk nomlarini tiklashga kirishdik, degan savolga quyidagicha javob berdi: "Chunki bu buyuk insonlarning aziz nomlari, o'lmas merosi muqaddas dinimiz bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ularni bir-biridan ajratib bolmaydi. Biz bu ulug' nomlarsiz, bu ulug' nomlarni esa dinimizsiz tasavvur eta olmaymiz"⁸.

Shuning natijasi ularoq mustaqilligimizgacha o'rganilmay kelingan yoxud ta'qib ostiga olingan Abduxoliq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy kabi buyuk zotlarning merosiga bo'lgan qiziqish ko'chaydi. Bu borada, islom olamining zabardast allomalari buyuk sanalarining, xususan, Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamahshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi, Hoja Ahrori Valiyning 600 yilligi, Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Burxoniddin al-Marg'iloniy tavalludining 910 yilligi, Abu Mansur Moturdiy tavalludining 1130 yilligi, Abduxoliq

⁸ Karimov I.A. Olloh qalbmizda, yuragimizda. -T.: O'zbekiston, 1999, -B. 6-7

G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligi xuddi shuningdek buyuk daholarimiz va davlat arboblari Alisher Navoiy, Ulug'bek, Amir Temur, Ahmad Farg'oniyning tavallud topgan kunlari va yubiley sanalari o'tkazildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov bu buyuk siymolar shaxsiyatiga nega bunchalik ahamiyat qaratayotganligini shunday izohlaydi: "Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz, bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, Balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilm-u fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanligini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'no-mazmunini farzandlarimizga etkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart, deb hisoblayman" [33].

Milliy qahramonlarimiz bo'lgan Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, "Alpomish" dostonining 1000 yilligi, "Avesto" kitobining 2700 yilligini nishonlanishi, yoki Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz shaharlarining 2500-2700 yilligi, 2006 yilda Qarshi shahrining 2700 yilligi, 2007 yilda Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubileylarini o'tkazilishi bu boradagi katta tarixiy ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlar hisoblanadi.

Mustaqillik sharofati bilan Qur'oni Karim o'zbek tiliga tarjima qilinib ko'p nusxada chop etildi. Imom al-Buxoriyning to'rt jildlik hadislarini chop etish tugallandi. Xoja Ahmad Yassaviyning "Xikmatlar" to'plami chop etildi. Ko'plab Qur'oni Karim sharhlariga oid kitoblar ham chop etilganligini va ulardan xalqimiz bahramand bo'layotganligining guvohi bo'lib turibmiz.

Istiqlol tufayli Iyd Ramazon va Qurbon Hayit kunlari diniy qadriyatlarimizning bayrami sifatida nishonlanmoqda. Navro'z umumxalq bayrami sifatida xalqimiz hayotidan mustahkam o'rin oldi. Har yili 3000 dan ortiq vatandoshlarimiz muborak haj safarlarini ado etmoqdalar.

Prezidentimiz tomonidan Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi tantanali marosimi qatnashchilariga yo'llagan tabrik xatida shunday so'zlar yozilgan:

“Bugungi kunda Termiziyning ma’naviy meroslari nafaqat din ahli orasida, balki dunyoviy ilm sohiblari, keng miqyosdagi ahli jamoa orasida ham o‘z qadrini topayotir. U kishining shoh asarlaridan “Sahih at-Termiziy” hozirga qadar hadis ilmining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Allomaning asrlar davomida fozilu-fuzalolarga dastur bo‘lib kelgan... insonparvarlikni targ‘ib etuvchi g‘oyalari davrimizning murakkab va ziddiyatli ahloqiy-ma’naviy masalalarini hal etishda zamonaviy ahamiyat kasb etadi” [33].

Mustaqillik tufayli boshlangan milliy-ma’naviy merosni qayta tiklash borasidagi harakatlar har yili beistisno o‘nlab, yuzlab amaliy ishlar orqali mustahkamlanib, rivojlanib bordi. Ayniqsa, mustaqil O‘zbekistonda har yili Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat, Fitrat. Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi ulug‘ shoir va ma’rifatparvarlarning kunlarini o‘tkazish an’anaga aylanib qoldi.

Prezidentimiz I.A.Karimov Imom al-Buxoriy majmuasining ochilish marosimida so‘zlagan nutqida shunday degan edi. “Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat O‘zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxr-iftixoridir. Ul tabarruk zotning hayoti tom ma’nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so‘nmas e’tiqod timsolidir. Ozodligimizning dastlabki yillaridanoq biz Imom al-Buxoriy maqbarasini ul zotning sha’n-shavkatiga munosib qadamjoga aylantirishni niyat qilgan edik. Ollohning inoyati bilan ezgu niyatimiz ijobat bo‘lgan shu qutlug‘ kunda men bu muazzam yodgorlik majmuining shunchaki ziyoratgohga emas, balki go‘zal O‘zbekistonimizni butun dunyoga tanitadigan, yosh avlodimizni ezgulik yo‘lida tarbiyalaydigan, har bir insonni hayot va abadiyot haqida o‘ylantiradigan aziz maskan bo‘lib qolishiga ishonaman”⁹.

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz va xalqimiz madaniy-ma’naviy yuksalishida “Avesto” kitobining 2700 yilligini nishonlanishi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki, qariyb 30 asr muqaddam yaratilgan va tarixiy voqealarni o‘zida aks ettirgan “Avesto” milliy g‘oyalarni asrab-avaylash, xalqni jipslashtirish, uni ma’naviy yuksaklikka da’vat etish, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat to‘yg‘ularini mustahkamlash va xalq an’analarini saqlab qolishda muhim

⁹ I.A. Karimov Buyuk allomaga yuksak ehtirom Samarqand, 1998 yil, 23 oktabr. Manba: O‘zbekiston yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi «Sharq» nashriyoti, Toshkent-2000 yil

ahamiyat kasb etgan. Yurtboshimiz aytganidek, -“Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig‘ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma’naviy tarixiy merosidir”¹⁰.

Tarixiy haqiqatga aylangan istiqbolimiz O‘zbek xalqining obro‘-e’tiborini, qadr-qimmatini, o‘ziga ishonchini tiklash bilan bir qatorda, xalqimizning milliy-ma’naviyatini keng qamrovli sarchashmalaridan yanada to‘laqonli bahramandlik topishida, milliy o‘zligini anglab yetishida milliy tili g‘ururi, iftixori va qadriyatlarini yanada gullab yashnashida istiqbol yo‘lini farovon etib bormoqda.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma’naviy merosimizga bo‘lgan munosabatni o‘zgarishiga Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma’naviy tiklanish va yangilanish konsepsiyasi juda katta nazariy va metodologik ahamiyatga ega. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bu konsepsiya sobiq SHo‘rolarning totalitar tuzumi sharoitida boy milliy-ma’naviy madaniyatimizning inqirozga yuz tutganligi va uning sabablarini tushunishga;

Ikkinchidan, sobiq SHo‘rolarning o‘tkazgan zo‘ravonligi, zulmi va jinoyatkorona xatti-harakatlariga qaramasdan, milliy-ma’naviy merosimizning ildizlari mustahkam bo‘lganligi uchun bu zo‘rovonliklarga bardosh berib, o‘z salohiyat va xususiyatlarini saqlab qololganligini tushunib yetishga xuddi shuningdek, ana shu omil mustaqilligimiz sharoitida kuch, qudrat, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularimiz uchun manba bo‘layotganligini tushunib yetishga;

Uchinchidan, har bir millat, u son jihatdan kichikmi yoki kattami undan qat’iy nazar mustaqillik ularning har biri uchun suv va havodek zarur ekanligini, faqat mustaqillik millatni milliy-ma’naviyatini saqlab qolishga, uni rivojlantirish va keyingi avlodga yetkazish baxtiga muyassar etadigan asosiy omil ekanligini tushunishga, bu esa har bir millatdoshimiz va vatandoshimizni mustaqillikdek ulug‘ ne’matni saqlab qolishi uchun fidoiylik ko‘rsatishi ma’naviyatning yuksak belgisi ekanligini qalban his qilishga imkon beradi;

¹⁰ I.A.Karimov. «Adolatki jamiyat sari» T.,1998, 39-40 betlar

To‘rtinchidan, milliy-ma’naviy tiklanishning mohiyati, ”ma’naviyat” tushunchasi, uning shaxs, millat kamoloti, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini bilib olishga, uni rivojlantirish uchun merosimizni chuqur o‘zlashtirish tinmay izlanish, ma’rifat, fan, texnika va texnologiya yutuqlarini sabot bilan o‘zlashtirish hamda Prezidentimizning bugungi taraqqiyotimizni ta’minlaydigan “kuch-bilim va tafakkurda” – degan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan konseptual g‘oyasiga izchillik bilan amal qilishimiz;

Beshinchidan, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash va islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy-ma’naviy tiklanishimiz oldida turgan vazifalar ko‘lamini bilib olishga va uni amalga oshirishda umummilliy safarbarlik harakatini avj oldirishda fidoiylik ko‘rsatish zarurligi;

Oltinchidan, talaba yoshlarning milliy-ma’naviy tiklanish borasida ular oldida turgan vazifalarni bilib olishga, milliy g‘urur, iftixor, fidoiylik, vatanparvarlikni shakllantirish, mustaqillikni mustahkamlash va taraqqiyotimizning asosiy sharti ekanligini tushunib yetish;

Yettinchidan, milliy istiqlol g‘oyasining ma’no va mazmunini chuqur anglashimiz, mutaqqillikni mustahkamlash jarayonida ma’naviy yangilanishimiz borasida strategik vazifalarimizni asosiy yo‘nalishlari va ko‘lamini chuqur bilib olishimiz hamda ularni amalga oshirishda fidoiylik ko‘rsatishimizning ahamiyatini tushunib yetishimiz zarurligi kabilardir[33].

Prezidentimiz ishlab chiqqan milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasida insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjaxon mulkiga aylangan barcha boyliklarini milliy ma’naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirish ham asosiy o‘rinni egallaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek “Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo‘lga kiritgach, o‘z taqdirining chinakam egasi, o‘z tarixining ijodkori, o‘ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi”¹¹. Bu so‘zlar zaminida qanday ma’na mazmun borligini har bir fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz teran anglab yetganlar.

¹¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O‘zbekiston, 1997.

Yuqorida ta'kidlanganlarning hammasi istiqlol yillarida O'zbekistonda milliy-ma'naviy merosning tiklanishi va yangilanishi hamda xalqimiz ongiga yetkazishda katta va ulug'vor ishlar olib borilayotganligidan dalolat beradi. Fikrimizni muxtasar qilib, bir haqiqatni alohida ta'kidlash lozimki, tarix O'zbek diyorida milliy-ma'naviy merosni tiklash va yuksaltirish borasida mustaqillik sharofati ila qilingan va amalga oshirilgan ishlar kabi jadal faoliyatni ko'rgan emas.

II-BOB. MILLIY URF-ODATLAR VA QADRIYATLARNI O'QUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISHNING MUHIM OMILLARI VA MEXANIZMLARI

2.1. Milliy-ma'naviy meros va qadriyatlarning shaxs ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishdagi roli

Aniqlanishicha sayyoramizda o'zining madaniy va ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lgan 1600 dan ortiq etnik guruh yashaydi. Shulardan bittasi o'zbeklardir. Tabiiyki, har bir urug' qavm, elat, xalq va millat o'zining ijtimoiy-tarixiy shakllanishi jarayonida turmush tarzi va o'zini o'rab turgan tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatlari asosida ularda evolyutsion yo'l bilan o'ziga xos turli-tuman rasm-rusumlar, an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va marosimlar shakllangan. Ayniqsa, o'zbek xalqida shakllangan urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va marosimlar o'zining mohiyati, teranligi va jozibasi bilan jahon xalqlarini o'ziga maxliyo etib keladi. O'zbek xalqining tarixiy an'analari, urf-odatlari, udumi, rasm-rusumlari, axloq meyorlari, turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlari, shaxslararo munosabati, muloqot maromi va xususiyati boshqa qardosh xalqlarnikidan ma'lum darajada tafovutlanadi. Masalan, o'zbek xalqi xarakterida andishalik, xushmuomalalik, shirinsuxanlik, mehmon kutishdagi ochiqlik, bag'ri kenglik, saxiylik, o'ylab bir qarorga kelishlilik, tejamkorlik mehnatsevarlik, sadoqatlilik, odoblilik va boshqa shu kabi odatlar xosdir.

Axloq va odobli bo'lish, ota-onalar va kattalarga xurmat, samimiylik, inoqlik, qadr-qimmat, vijdonlik, iffatlilik, uzaro yordam kabi insoniy hislatlar o'zbek xalqi ma'naviyatining ramzi sanaladi. Tug'ishganlarga, avvalo ota-onaga nisbatan milliy tuyg'udagi munosabat, qon-qardoshlik rishtalari ham milliy ruhiyatni aks ettiradi. Bu narsalarning barchasi xalqning boy tarixi, madaniyati, tili adabiyoti va tarixiy obidalarda o'z ifodasini topgan. Ana shu sababdan milliy ma'naviy boyligimizni yosh avlod chuqur egallashlari uchun uning bebaxo durdonalarini keng ko'lamda namoyish qilishimiz, bular to'g'risidagi bilim ma'lumotlarni yoshlar ongiga singdirishimiz zarurki, ular ko'p asrlik qadriyatlarimizni anglab yetmog'i kerak. Zotan, bularning barchasi o'zbek oilalari

va maktablarida milliy tuygʻuning keng koʻlamda quloch yoyishi uchun puxta zamin hozirlaydi.

Miliy qadriyatlar, milliy anʼanalar, milliy urf-odatlar va marosimlar shaklida namoyon boʻladi. Urf-odat muayyan xatti-xarakatlarning aynan takrorlanib turishi, unga toʻla amal qilinishini taqozo etadi, shuningdek, u, ijtimoiy madaniyatning oʻziga xos amaliy ifodasi hisoblanadi. Marosimlar esa urf-odatlarlarning barqarorlashgan shaklini bildirib, ichki yaxlitlikka, shaklan bejirimlikka ega boʻladi. Marosimlarning eng muhim xususiyatlaridan biri-bu xalq nazokati, latofati, ruhiyatini aks ettirishdir. Ota-onaga hurmat, keksalarga extirom kabilar oʻzbek va Markaziy Osiyo xalqlarining eng asosiy urf-odatlari doirasiga mansub boʻlib, ularning oʻzaro munosabatini anglatadi. Rasm-rusumlar, marosimlar va urf-odatlarining namoyon boʻlishi shakli tariqasida tasnif qilinadi[32]. Masalan: toʻy, mehmon kutish, dafn bilan bogʻliq urf-odatlar va marosimlar umumiy jixatlari bilan bir qatorda, oʻzbek millatida soʻz va xarakatlar bilan ajralib turadigan oʻziga xos maxalliy xususiyatlarga ega.

Xalq urf-odatlari, anʼanalari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-birlariga yaqinlashtiradi, doʻstlik- birodarlik his-tuygʻularini rivojlantiradi. Bular oʻz navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini oʻtaydi. Odamlarning bir-biriga mehr oqibati, oqilona munosabati, toʻgʻri muloqoti, iltifoti, extiromi xalqimizning ichki goʻzalligini, boy maʼnaviy va ruhiy qiyofasini ifodalaydi. Mehr-muruvatlilik, saxiylik, mehmondoʻstlik, xushmuomalalik, mehr-oqibatlilik, andishalilik, samimiylik, intizomlilik, toʻgʻrilik, mehnatsevarlik, oʻzini tuta bilishlik, tejamkorlik, sabr-qanoatlilik, kabi his-tuygʻular va hislatlar yoshlar uchun ibrat namunalari[14,7].

Oʻrta Osiyo mutafakkirlarning ilmiy merosi aks etgan manbalarda oʻzbeklarda qadrlangan, axloq-odob, maʼnaviy fazilatlar haqida koʻplab qimmatli fikr, maʼlumotlar mavjud. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida oʻzbeklarga xos koʻplab maʼnaviy-axloqiy sifatlar tasvirlanadi. Bular iymon-eʼtiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, bolajonlik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, farzandlarning ota-onalariga, aka-uka, opa-singil, qarindosh-

urug‘lariga mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya qilish, savodxonlik, saxovatlik, xushfe‘llik, shirinso‘zlik, mardlik, odillik, hayolilik, saxiylik, oqko‘ngillik, mehnatsevarlik kabilardir[34].

O‘zbek xalqining hozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatlari o‘tmish milliy ma’naviyatining davomi bo‘lib, ularga do‘stlik, mehmondo‘stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy poklik, tadbirkorlik, fazilatlik, saxiylik, xushmuomalalik, jamoada o‘zini tuta bilishlik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe‘llik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlik, ro‘zg‘orparvarlik, shirinso‘zlik, tashabbuskorlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlik, insoflilik, diyonatlik, rostgo‘ylik, halollik, or-nomuslik, to‘g‘rilik, rejalilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o‘tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g‘urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy, ma’naviy-axloqiy fazilatlar kiradi.

Millat, xalq bor ekan, uning ma’naviy dunyosida milliylik doim saqlanib qoladi. O‘zbeklarning milliy ma’naviyati, erkak va ayollarga xos sharqona axloqiy fazilatlar, ota-ona, farzandlar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla-ko‘y aloqalari, halollik, iymon, vijdon bilan bog‘liq ma’naviyat an’anaviyligi bois, hozirgi kun uchun ham xosdir. O‘zga millatlarning ma’naviy qadriyatlari qanchalik ta’sir ko‘rsatmasin, kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, iymon, mehnatsevarlik, mehmondo‘stlik singari milliy ma’naviy fazilatlar hamisha barqarordir. Chunki bu ma’naviy xislatlar avloddan-avlodga o‘tib, qon-qonimizga singib ketgan. Ayollarimiz qanchalik zamonaviylashmasinlar, ular hayo, ibo, nomus, oila, qarindosh-urug‘larga munosabat bobida sharqona, o‘zbekona fazilatlarini tark etmaydilar. Millat bor ekan, uning ma’naviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi[27,85].

Sobiq Ittifoq totalitar tuzumi sharoitida ma’naviy-axloqiy fazilatlarining milliy jihatlari, an’analarini inkor etish yoki kamsitish kuchaydi. Ular ma’naviy qoloqlikning ifodasi sifatida talqin etildi. Sharq xalqlari, jumladan o‘zbek xalqining ko‘p ming yillik ma’naviy boyliklarini o‘zida ifodalagan hadislar, shariat

hukmlari xurofot deya qoralandi. Xalqimizning axloqiy andisha, sharmu hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmatini ifodalagan ma'naviy qadriyatlariga zid bo'lgan yevropacha an'analar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Shu tufayli ma'naviy tubanlik yuzaga keldi. Yoshlarda asriy milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan bag'ritoshlik (farzandni, ota-onani tashlab ketish singari), qotillik (o'z farzandini o'ldirib, yashirish), xudbinlik, maishiy buzuqlik, giyohvandlik kabi ma'naviy qiyofa yuzaga kelib, ildiz ota boshladi.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy va boshqa fidoyilar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo'lgan ma'naviy inqiroz haqida kuyinib gapirib, bunday og'ir vaziyatdan ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqali chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. "Tarbiya, – degan edi Abdulla Avloniy, – bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir"[34]. Bu fikrning ahamiyati hozirda ham kamaygani yo'q. O'zbek millati faqat milliy ma'naviy kamolot tufayli yuzaga kela boshlagan milliy-ma'naviy aynishning oldini olishi mumkin.

Sovet totalitar tuzumining barbod bo'lishi, O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi jamiyatimiz ma'naviyatida chuqurlashib borayotgan inqirozning oldini olish uchun Tangrining inoyati, xalqimizning baxti bo'ldi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda milliy ma'naviy poklanish, o'nglanish, tiklanish jarayoni yuz berdi. Yosh avlodni, yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish, iymon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish hozirgi kundagi milliy-ma'naviy tarbiya ishining asosiy maqsadidir. Shu o'rinda milliy-ma'naviy tarbiya va uning asosiy yo'nalishlari va mohiyatini aniqlab olish zarur.

Milliy tarbiya – u yoki bu millat, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatni, merosni, qadriyatlarni, urf-odatlarni, an'analarni o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning subyektidir. Milliy tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini millatparvarlikni,

xalqparvarlikni, vatanparvarlikni, mehnatsevarlikni, yuksak insoniylikni rivojlantirish, merosni, urf-odatni, qadriyatlarni, fan, texnika, texnologiyalarni o‘zlashtirishga intilishni rivojlantirish, mehr-oqibat, imon-e’tiqod, or-nomus, insof-diyonat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini tushunib yetish va unga amal qilish ruhiyatini shakllantirish kabilar tashkil etadi[21,54].

Milliy tarbiyaning yana bir yo‘nalishi- ota-ona, qarindoshurug‘larning hurmatini joyiga qo‘yish, oilaning muqaddasligi tushunchasining barqaror bo‘lishiga erishish, o‘zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotgan o‘zga millat va elat vakillarining manfaatlarini hisobga olish kabilar tashkil etadi.

Yuqorida qayd etganimizdek, umuminsoniy ma’naviyat – butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo‘lgan ma’naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma’naviyat uzoq va yaqin o‘tmishdagi, hozirda esa ma’naviy jihatdan juda qimmatli, inson qalbida o‘chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, insoniyat ijtimoiy manfaatlari, ehtiyojlari uchun xizmat qiladigan, ezgulikka yo‘llaydigan ma’naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma’naviy boyliklarga esa ilm-fan, jumladan falsafiy tafakkur yutuqlari, adabiyot va san’at asarlari, kashfiyot va ixtirolar, ma’naviy madaniyat durdonalari, hurfikrlik, umuminsoniy axloqiy meyorlar va boshqalar kiradi.

Umuminsoniy ma’naviyat o‘z ijobiy ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. “Oltin zanglamas, quyosh qoraymas” deganlaridek, umuminsoniy ma’naviyat ham qadimiy va doim navqiron bo‘lib turaveradi. U umumbashariy ma’naviyat deb ham yuritiladi. Inson ozodligi, salomatligi, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalaniish imkoniyatlari va u haqda g‘amxo‘rlik qilish kabi ma’naviy mas’uliyat o‘z ahamiyatini doim saqlab qolaveradi. Adolat, tenglik, ahil qo‘shnichilik kabi ma’naviy qadriyatlar asrlar osha yashamoqda, uni insoniyat avaylab-asrab kelmoqda. Mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik qilish, tinchlik, do‘stlik, halollik, vatanparvarlik kabilar ham umuminsoniy ma’naviyat sanalib, ular har qaysi xalq, millatda o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi.

O‘zidan yoshi kattalar, ota va onaga hurmat ko‘rsatib, farzandlar haqida g‘amxo‘rlik qilish ham umuminsoniy ma’naviy jihatlar ekanligini yoddan

chiqarmaslik kerak. Vijdon, burch, baynalminallik ham umuminsoniy ma'naviyat tizimidan o'rin olgandir.

Yuqorida ta'kidlangan ma'naviyatga doir tushunchalar hamma millat, xalq uchun bab-barobar tegishlidir. Ammo ularning hammasi faqat muayyan milliy shaklda namoyon bo'ladi. Umuminsoniy ma'naviyatda biz milliy ma'naviyatning eng olijanob, eng yuksak ko'rsatkichlarining umumjahon miqyosida mujassamlashgan birligini ko'ramiz. O'z taraqqiyoti uchun har bir millat umuminsoniy ma'naviyat boyliklari, xazinasidan foydalanishi, unga suyanishi tarixiy zaruratdir. Buningsiz zamonaviy ilg'or millat haqida orzu qilish mumkinmas. Umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan foydalanish milliy cheklanganlik qobig'idan chetga chiqishga, olamni kengroq ko'rish va kuzatishga undaydi.

Agar milliy ma'naviyat bo'lmasa, umuminsoniy ma'naviyat yo'q, umuminsoniy ma'naviyatlarsiz esa hozirgi zamon ilg'or millatlari yo'q. Millatlar umumjahon, umumbashariy ma'naviyatning yaratuvchilaridir. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek: "Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam"[32]. Umumjahon, umuminsoniy ma'naviyat esa hozirgi zamon ilg'or millatlari taraqqiyotining zamini, tayanchi va negizidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek xalqining milliy psixologik xususiyatlarini va fazilatlarini aks etgan qadriyatlardan oila, maktab, maxalla va oliy o'quv yurtlaridagi tarbiyaviy jarayonlarda o'rinli foydalanish-har tomonlama taraqqiy etgan barkamol shaxsni tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham xalqimizning milliy mohiyatini belgilaydigan bunday urf-odatlarini, an'analarni, udum va qadriyatlarni tiklash, boyitish va rivojlantirib meros sifatida kelajak avlodga qoldirish muqaddas burchimizdir.

2.2. O‘quvchi shaxsini kamol toptirishda milliy an’analar, urf-odat va qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati

Tarixning guvohlik berishicha, har bir xalq va millat o‘zlarining eng ibtidoiy davridan, ya’ni urug‘chilik davrdan boshlab, o‘zligini namoyon qilishga, milliylikini saqlab qolishga va uni tobora rivojlantirib borishga harakat qilib kelganlar. Tarbiyaning bunday ko‘rinishlari va uning o‘ziga xos shakllari xilma-xildir. Shu o‘rinda milliy qahramon Spitamenning vatanparvarlik yo‘lida olib borgan mardonavor kurashlari yuqoridagi fikrimizga dalil bo‘la oladi. Ilm-fanda mo‘jizalar yaratgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqa ko‘plab ajdodlarimiz qaysi zaminda yashamasin, qaysi tilda asarlar yaratmasin, o‘z elini, urf-odatlarini unutmaganlar, doimo “o‘zbek” degan nomni ulug‘laganlar Milliy an’analarimizni o‘rganishda Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojib singari mashhur siymolar xizmatlari ham beqiyosdir.

Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulg‘ozi Bahodirxon, Nodirabegim, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi yorqin siymolarning sa’y-harakatlarini aytish o‘rinlidir. Haqiqatan ham, bu davr el-yurtimiz tarixini, madaniyatini va san’atini o‘rganishning oltin davrini tashkil etadi. Urf-odatlar, marosim va udumlar o‘z-o‘zicha boshqa xalqlar ma’naviyatidan ayri taraqqaqiy etmagan albatta. Aksincha, milliy an’analarimiz qardosh-qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik va ozarbayjon xalqlarining ta’sirida yaratilgan, taraqqiy topgan.

Har bir xalqning ana shu ulkan ma’naviy qadriyatlari chuqur tomir otib ketgan o‘q ildizlari bilan jahon madaniyatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Turkiston qadim-qadimdan hunarmandchiligi, pazandachiligi, dehqonchiligi, ilm-fani, san’ati va adabiyoti, bir so‘z bilan aytganda ma’naviyati yuksakligi jihatidan olamga mashhurdir. Mehnatsevarlik, yerga mehr qo‘yish, kasbiga ixlos, mehmondo‘stlik, mehr-shavqatlilik, odamgarchilik, ota-onaga hurmat, kattalarni siylash, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi mehr-oqibatlilik, peshona teri evaziga topilgan rizq-nasibasiga qanoat qilib yashash, beva-bechoralarga muruvvatlilik

xalqimizga xos odatlardir. Bu urf-odat, an'ana va marosimlarda xalqimizning qator noyob fazilatlari, insonparvarlik xislatlari mujassam.

Odat - xalqlarning ichki munosabatlarini tartibga soluvchi mezon va an'analar majmuasi hisoblanadi. "Odat" so'zi udum, urf, an'ana va marosim tushunchalari o'rnida qo'llaniladi. Marosim esa odatning amaliy ko'rinishidir. O'zbek xalqi juda ham boy xilma-xil odat va an'analarga ega[34]. Milliy urf-odatlar, an'analar tarixiy-ijtimoiy kategoriya bo'lib, ular muayyan millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida avloddan avlodga o'tib kelgan ishlab chiqarish, tirikchilik, maishat, xulq-atvor va boshqalarda o'ziga xoslikka ega bo'lib, rasm-rusumga aylangan munosabatlardir. Urf-odatlar asrlar davomida yashab, kishilarning axloqiy normalariga aylangan holda, ularning qon-qoniga, xatti-harakatiga, kundalik turmushi shakllariga singib ketadi.

Kishilarning o'z xalqi urf-odatlari va an'alariga amal qilmasliklari xalq qadriyatlarini bilmaslikka olib keladi. Chunki har bir milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz negizida milliy ruh, ma'naviyat, qadr-qimmat kabi ulug' insoniy fazilatlar yotadi. O'z qadr-qimmatini bilish kishini xudbinlikdan saqlaydi, o'zini boshqalar tomonidan kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, o'z qadr-qimmatini, izzat-nafsini hurmat qiladigan inson o'zgalarni xo'rlamaydi, u faqat yaxshilik qilishni o'ylaydi. Inson bolasi yoshligidan yaxshi va yomon odatlarning qaysinisiga ko'nikib, o'rganib qolgan bo'lsa, bu odat uni bir umr tark etmaydi. Shuning uchun ham xalqimizda "Yoshlikda o'rgangan hunar, o'zingga o'ljaga qolar" kabi maqollar bor[18,44].

Islom dini ta'limotiga ko'ra farzand ko'rgan ota-ona zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi: tug'ilgan bola qulog'iga azon aytirish, unga munosib ism qo'yish, jonliq so'yib aqiqa qilish, o'g'il bo'lsa qo'lini halolash, axloq-odob, ilm-hunarga o'rgatish, bo'ysa yetganda munosibiga uylash, uzatish-boshini ikkita qilib qo'yish kabilardir. Odatga ko'ra ota-bobolarimiz tavallud topgan bolaning qulog'iga birinchi navbatda bir mulla chaqirib, azon aytirganlar. Bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino go'dak chillasi to'g'risida ming yil burun aytib ketgan fikrlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan[34].

Tavallud topgan chaqaloq to'ng'ich farzand bo'lsa, bozordan beshik sotib olinadi. Odatda beshikni kelinning ota-onasi olib kelishadi. Ikkinchi yoki navbatdagi farzand tug'ilgan bo'lsa, opa-akasining beshigiga belanadi. Mustahkam, qulay, xosiyatli bitta beshik bir oiladagi o'n farzandnigina emas, uch-to'rt avlodni tarbiyalab, voyaga, yetkazishi mumkin. O'zbeklar, tojiklarda bobosi, otasi yotgan beshikda parvarish topgan bolalar bor. Yosh onalar ixlos qo'yib, mana shunday xosiyatli, ko'hna beshiklarda o'z chaqaloqlarini boqishni afzal ko'radilar. O'zbek shuning uchun beshikni muqaddas bilib, uni hech qachon chaqalog'i bo'lmasa ham tashlab yubormaydi. Hamisha o'zi, oilasi bilan birga olib yuradi.

Beshik bor joyda bola bo'ladi. Bola bor joyda alla aytilishi tabiiy. Onalar qadimda o'z bolalari beshigi tepasida kechasi bo'lsin, kunduzi bo'lsin, alla aytib kelishgan. Allalarda xalq turmushining juda ko'p qirralari o'z in'ikosini topgan. Alla o'z ohangi bilan bol aga ona nafasini yetkazib turadi. Go'dakni xotirjam qiladi, elitadi, orom olib uxlashiga imkon beradi. Allalarga onalar o'z his-tuyg'ulari, orzu-armonlari, istak-niyatlarini, dard-hasratlarini ham qo'shib aytganlar. Alla tarbiyaviy, didaktik, an'anaviy ijod namunalaridan iborat bo'lgan. Alla tinglagan bola onaga mehrini sut bilan o'z shuuriga singdyradi. Alla inson ong qatlamlarida bir umr mungli, hazin, nurli qo'shiq bo'lib saqlanib qoladi. Alla eshitmagan bolada bu xususiyatlar bo'lmaydi. Alla nafaqat onaning bolaga mehri, balki bolaning onaga mehr-oqibatining ham manbaidir[20,144].

Bolaga munosib ism tanlash va qo'yish ham azaliy odatdir. Xalq orasida odam bolasi o'z xulq-atvori, fe'li va shu jumladan, ismi bilan bilinadi, degan gap bor. Ota-onalarning eng muhim burchlaridan biri o'z farzandlariga munosib nomni topib qo'yishdan iborat. Bolaga ism qo'yish g'oyatda jiddiy, mas'uliyatli udum sanalib, bu ism bo'lajak fuqaroning kelajak takdiri - hayot yo'liga ta'sir qiladi, deb tushunilgan. Shuning uchun ham urug', kasb-kor-u sulola mavqeiga mos ism qo'yish taqozo qilingan. Avvalo ismlar mavrudi bilan xudo va payg'ambarlarning nomlari asosida Rasul, Akbar, Nabi, G'ani, Muhammad singari atalgan. Bu bilan farzand olloyi taoloning marhamatidan dunyoga keldi, umri uzun bo'lsin, xudo yorlaqasin, degan niyat qilingan. Xudoyberdi, Olloberdi, Tangriberdi singari ismlar

aksariyat paytlarda qizlar orasida tug‘ilgan yagona o‘g‘il bolaga, tilab olingan farzandlarga qo‘yilgan. Bola tug‘ilgan fasli, vaqti va marosim davriga qarab: Bahor, Navro‘z, To‘ychi, Cho‘li, Bayram singari nomlar bilan atalgan.

Chaqaloqning oiladagi o‘rniga qarab Ergash, O‘g‘iloy, Qo‘chqor kabi nomlar berilgan. Badan belgilariga qarab Xoldor, Ortiq, Quدرات, Sunnat, Nortoji deb qo‘yilgan. Tug‘ilgan qizlarning qadami xayrli kelsin degan niyatda Muborak, Muqaddas, Sharofat, Xayriniso, Umriniso, Robiya, oy-quyoshdek bo‘lsin deya Munavvar, Shamsiqamar, Oypari, Oygul atalgan. Gulu chechaklardek nafis, muattar va yoqimli bo‘lsin deb Gulrang, Gulchehra, Nargiz singari ismlar qo‘yilgan. Ko‘pincha bolaning qaysi kunda tug‘ilganligi hisobga olinib, unga ism tanlangan. Bozorvoy, To‘ychivoy, Xayitvoy, Jumavoy, Chorshanba singari nomlar ana shundaylardan hisoblanadi. Ism qo‘yish odatida o‘g‘il-qizga ota-onaning, aka-opalarining ismi ham muayyan o‘rin tutadi. Keyingi nomlar shu ismlarga monand tarzda qo‘yiladi. Masalan, Naim, Karim, Salim, Mahmud, Ma’sud, Maqsud singari[32].

O‘zbek oilalarida er-xotinlar bir-birining nomini aytib chaqirishmagan. Juda zaruriyat tug‘ilganda, ular bir-birlarini katta farzandlarining nomi bilan atashgan. Bu hol sharqona nafis munosabatning bir belgisidir. O‘zbekchilikda tarbiya o‘g‘il-qizga nom berish, ism qo‘yishdan boshlanadi. Ota-onaning burchi bolasiga munosib ism qo‘yib, qo‘lini halolab, boshini ikkita qilish ekanligini Siz ham eshitgansiz. Shuning uchun xalqimizda “ota bo‘lish oson, otalik qilish qiyin” degan naql bor. Murakkab hayot yo‘lida to‘g‘ri ism olgan o‘g‘il-qiz ota-onaning, avlodning munosib davomchilari bo‘lib, bu yo‘lda kattalarga yordam berishlari talab qilinadi.

Keksalarni hurmat qilish, ularning maslahatlarini, yo‘l-yo‘riqlarini olib ish tutish, pand-nasihatlariga quloq solish va unga amal qilish qadim-qadimdan o‘zbeklarga xos odat bo‘lib kelgan. Nonni e’zozlash odati qadim-qadimdan to shu kungacha davom etib kelmoqda. “Non – iymondek aziz, hidida hayot bor”, “Nonga hurmat, elga hurmat”, “Non mo‘lligi - el to‘qligi” kabi qator xalq maqollarini non haqida bo‘lgan suhbatlarda ishlatish o‘rinlidir. Masalan, mehmon kutganda

dasturxonga birinchi bo‘lib non qo‘yilishi, ikki yoshni unashtirish marosimida patir ushatish odati, chaqaloqni beshikka solganda boshiga non qo‘yish, yo‘lga chiqqanda o‘zi bilan birga non olib ketish eng yaxshi odatlardir[32].

Suv - hayot demakdir. Suv bor joyda odam yashnaydi, o‘t-o‘lan, ekin-tekni, gul va daraxtlar gurkirab o‘sadi. Qurt-qumursqadan tortib odam va hayvonlargacha suvdan bahramand bo‘ladilar. Suvning qadriga yetmaslik, uni nes-nobud qilish, avaylab ishlatmaslik qanchalik og‘ir oqibatlariga, tabiatdagi muvozanatning buzilishiga olib kelishini Orol dengizining qurib borayotganida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Dengiz suvining tobora kamayishi uning atrofida yashayotgan aholining sog‘ligiga jiddiy putur yetkazmoqda, atrofdagi ekologik vaziyatning buzilishiga olib kelmoqda.

Endilikda Orolni qutqarishga butun jahon jamoatchiligining diqqat-e‘tibori jalb qilinib, katta mablag‘lar sarflanishi kutilayotgan bir sharoitda xalqimizning suvdan hamma joyda tejab-tergab foydalanish haqidagi azaliy udumini hamisha yodda saqlash, uni o‘quvchilar ongiga singdirish ayni muddaodir. Qo‘ni-qo‘shnichilik, mehmondo‘stlik, hashar kabi ajoyib odatlarimiz eng mu‘tabar insoniy xususiyatlar sifatida yashab kelmokda.

O‘zbek xalq maqollarida “Yon qo‘shnim-jon qo‘shnim”, “Uzoqdagi qarindoshdan - yaqindagi qo‘shni yaxshi” deyilgan bo‘lsa hadislarda qo‘shnichilik to‘g‘risida shunday deyilgan: “Yonida qo‘shnisi och turib, o‘zi to‘ygan odam mo‘min emas” Bu chuqur ma‘noli gapda odamlarni insof-diyonatga, mehr-oqibatli bo‘lishga chorlaydigan ajoyib o‘gitlar o‘z ifodasini topgan. Mehmondo‘stlik o‘zbek xalqimizga xos ajoyib bir udum. Xalqimiz o‘zi chor-nochor yashaganda ham topganini mehmondan ayamaydi, uning dilini xushnud qilishni istaydi. Bu sahovatlikning, ulug‘vorlikning belgisidir [22,96].

Buyuk bobokalonlarimiz Navoiy, Ulug‘bek, Bobur kabi daholar hayoti va faoliyatlari bilan tanishganimizda, A.Qodiriyniig mashhur “O‘tgan kunlar” romanidagi Otabek va Kumushbibilar o‘sgan xonadonlar oila tarbiyasida, o‘zaro muomalada yuksak bir odob-axloq namunasi ekaniga guvoh bo‘lamiz. Bu oilalarda ota-onalarning farzandlar bilan, hatto ustozlarning shogirdlar bilan o‘zaro

muomalada “siz”lab gapirishlari, oiladagi farzandlar va tengqurlar ham o‘zaro so‘zlashuvda “siz”lab muomala qilishlari nihoyatda ibratlidir. Bu fayzli urf-odatlarimiz kishilardagi mehr-oqibatni, o‘zaro hurmat-izzatni, o‘rtoqlik, do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun dono xalqimiz “sen” ham bir og‘izdan chiqadi “siz” ham, deb bekorga aytmagan. Bu odatlarimizga hozir ham ko‘pgina oilalarda amal qilinadi. Tarbiyaviy ishlarni yaxshi yulga qo‘ygan, bu udumimizning mohiyatini chuqur anglab olgan o‘qituvchilarimiz unga amal qilish borasida o‘quvchilarda ko‘nikma va malaka hosil qildirganlar[34].

Katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan oilaviy udumlarimizdan yana biri dasturxon atrofida o‘tirish, oilaviy ovqatlanishdir. Odat buyicha dasturxon atrofidagi oddiy suhbatda keksalar to‘rda, undan keyin ota-ona, aka, opa, kelin, singil, ukalar o‘tiradi. Eng yosh bolalar kattalar yonida o‘tirishlari kerak. Barcha oila a‘zolari to‘planib, dasturxonga taom tortilgandan so‘ng shu yerdagi yoshi ulug‘ning ruxsati bilan ovqatga qo‘l uzatish lozim. Yoshi kattalarni hurmatlab, ular obro‘si va izzatini o‘z o‘rniga qo‘yish - bu odatimizning asosiy maqsadidir. Choy atrofidagi suhbatda choynak, piyola, tagliklarning tozalab yuvib-artilishi, har bir kishi uchun alohida piyola tutilishi gigiyena talabi bo‘lsa, choyni uch marta piyolaga quyib, choynakka ag‘darish hech qanday irim-sirim bo‘lmasdan, balki choy ta‘mining bir xilligini ta‘minlash uchun kilinadi. Choyni yoshi kattalar quyib, yoshlarga uzatishi esa odobga zid bir holdir. Ovqatlanib, choy ichib bo‘lgandan so‘ng dasturxon atrofidagi keksa yoki yoshi kattaroqdan dasturxon va taom haqi duo fotiha o‘qing, deb so‘raladi[34].

O‘zbek xalqining turmush tarziga singib ketgan yaxshi va ijobiy urf-odatlarimizning ko‘pchiligi xalqni, jamiyatni faqatgina yaxshilikka - olijanob inson, axloqi pok, jismoniy sog‘lom, e‘tiqodli shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qilib keldi. Xalqimizda ko‘p yaxshi, ibratomuz urf-odatlar borki, ularni bugungi kunda ham keng qo‘llash foydadan xoli emas. Masalan, qadimda farzandi voyaga yetmagan yoki farzandsiz kishilar xususan, qariyalar biror-bir yumushlari uchun hech qachon mardikor yollamaganlar. Mabodo yollagudek bo‘lsalar, bu hol shu

mahallada istiqomat qiluvchi yosh-yalanglarning izzat-nafsiga tekkan; yon-atrofida tayyor dastyorlar turganda chetdan odam olib kelib, yumush buyurish qattiq ayb sanalgan. Qishda qor kurashmi, kuzda tom suvashmi, o‘tin yorib suv tashishmi yoki ekin-tikin ishlarimi – hamma - hammasi qo‘ni-qo‘shni bolalari yordami bilan bajarilgan. Oilada erkagi bo‘lmagan ayollar esa, bozor-o‘char ishlari, o‘tin yorish, suv tashish tashvishlaridan butunlay ozod bo‘lganlar. Buning uchun bo‘sh chelaklarni kucha darvozasi oldiga chiqarib qo‘yish, o‘tin va boltani tashqariga qo‘yishning o‘zi kifoya qilgan. Bularga ko‘zi tushgan yo‘lovchilar tanish-notanishligidan qati nazar, chelakni suv bilan to‘ldirib, o‘tinni yorib ketaverishgan.

Mana shunday beminnat hojatbarorlar uy sohibidan pul so‘ramaganlar, biror narsa ta‘ma ham qilmaganlar. Chunki yoshlar birovlarning hojatini chiqarmoq uchun o‘zlarini hamisha vazifador deb hisoblaganlar. Bu qimmatli udumimizni ayni vaqtda ham qayta tiklamoq zaruriy ishlardan biridir. Yoshlarimiz otabobolarimizdan meros bo‘lib qolgan ushbu odatlarni tiklashga hissa qo‘shsalar ayni muddao bo‘lar edi. Bu esa ularning kelgusi kamolatini, rizqu ro‘zlarining barakasini va hech qachon zavol ko‘rmasliklarini ta‘minlagan bo‘lardir. Zotan dono xalqimiz: “Yerdan ayrilsang ham eldan ayrilma”, “El ishini er yigit qilur, er yigit qadrini el bilur”,- deb bejiz aytmagan. Yoshlarimiz ana shu dono gaplarga amal qilishlari maksadga muvofiqdir[32].

Odob-axloq, ta‘lim-tarbiya sohasidagi qadriyatlarimiz bizlar uchun faqatgina meros emas, balki insoniyat ma‘naviy hayoti borasida katta o‘rin olishi mumkin bo‘lgan ma‘naviy boylik hamdir. Ana shu ma‘naviy qadriyatlarimizni tiklash, ulardan to‘la bahramand bo‘lish, yosh avlodni ular bilan tanishtirish mustaqilligimizni mustahkamlashda, o‘quvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik singari fazilatlarini anglatishda o‘tmishda ishlatilgan so‘zlarning asosiy ma‘nosini tahlil qilish orqali o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Kishining lug‘ati qanchalik boy va rivojlangan bo‘lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo‘ladi. Bu fikrlarni aniq, ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug‘atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi uslubshunoslik va nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida xalqimiz barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishdi. O'zbek xalqi o'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondashish ulug' ajdodlar qoldirgan boy ma'naviy merosni o'rganish sharafiga muyassar bo'ldi. Ma'lumki, respublikamizda ilm-fan yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda. Ajdodlarimiz, o'tmish merosimiz shuhratini tiklash, ulardagi insonparvarlik g'oyalarini xalq hayotiga tatbiq etishdek muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazishda, ularning tarbiyalanish darajasini yuqori bo'lishini ta'minlashda ona tili va adabiyot fanlarining o'rnini beqiyosdir. Umumta'lim maktablarida adabiyot darslarida ijodkorlar haqida ma'lumot berish bilan birga, asosan badiiy asarlar tahliliga ko'proq soatlar ajratiladi. O'qituvchi asar tahlili orqali o'quvchilarni qahramon his-tuyg'ulari, ichki kechinmalarini tushunish, mustaqil fikr yuritish olish va bayon etish, to'g'ri xulosa chiqarish, voqeliklarni to'g'ri baholay olishga o'rgatishi lozim. Shundagina o'quvchida go'zal axloqiy fazilatlarni shakllantirish orqali ularning ma'naviy olami boyitiladi. Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanib darslar samaradorligiga erishish mumkin. Bunda "Aqliy hujum", "Debatlar", "Qarorlar shajarasi", "Nuqtai nazarining bo'lsin", "Menimcha..." kabi interfaol metodlardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasidagi amalga oshirilayotgan tub islohotlar barkamol inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, xalqimizning milliy manfaatlariga, ezgu maqsadlariga to'la mos keladi. Shuning uchun ham "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da davlat jamiyat, inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olingan butun ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan muhim hayotiy masalalar ilgari surilgan. Endilikda ta'lim tarbiya jarayoning sifati jahon standartlari darajasida ko'tarilib, ta'limda pedagogik va axborot texnologiyalarining butunlay yangi usullari joriy etila boshlandi.

O'quv yurtlari tuzilmalari takomillashtirilib yoshlarga milliy uyg'onish va umuminsoniy qadriyatlarni idrok etish mafkurasi asosida Vatanga mehr-muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida ta'lim-tarbiya berish izchilligi ta'minlana

boshladi. “Ta’lim to’g’risida”gi qonunning 4-bobida ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlarni takomillashtirish, uning tarbiyaviy shakl va vositalarini ishlab chiqish, amaliyotga tadbiiq etish, milliy tarixiy an’analar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanish muhim ahamiyatga egaligi qayd etilgan bo’lsa, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturida” uzluksiz ta’limning milliy modeli, tamoyillari ta’limning ilmiy-ma’rifiy, tarix, xalq an’analarini, milliy merosimiz bilan uyg’unlikda olib borilishi ko’zda tutilgan. Ajdodlarimizning yaratuvchanligini shaxs manfaatlariga qaratilgan bo’lsa, hozirgi vaqtda mustaqillik davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko’zda tutilgan. Tarix millatning haqiqiy tarbiyasiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantib yangi fuqarolik ongiga shakllantirdi[33].

Mustaqil O’zbekistonning kelajagi ko’p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog’liq. Ana shunday muhim vazifani amalga oshirish uchun Vataniga, xalqiga, milliy ma’naviyatiga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan erkin, ijodkor shaxsni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib turibdi. Hozirgi davrdagi tub islohotlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, yuqori malaka, yuksak onglilik, ijodkorlik, jamiyat oldida ma’suliyatni his etishni talab qiladi. Bu muhim vazifalarni amalga oshirish, ma’naviy boy, barkamol shaxsni shakllantirish ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni izchil olib borishni taqozo etadi.

Bugungi kundagi turli zararli ta’sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo’lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo’lib qolishimizda qadimiy an’ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o’ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o’ziga xos bo’lgan an’ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo’lgan bunday qadriyat va an’analar bir-ikki kunda paydo bo’lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko’rsatadiki, biror-bir narsaning an’anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar,

asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

Xalqimiz juda qadim paytlardan boshlaboq ko'chmanchilikdan o'troq hayot kechirishga o'tgan, shunday hayot tarziga o'rgangan. Odamlar o'zi o'rnashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar. Chunki mana shu yer va suv yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchiligina muhim manbaya hisoblangan. Bunday o'troq hayot tarzi odamlarni jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib yashashiga, mehnat qilishi mehnat mahsullarini o'zaro ayirboshlash orqali savdo munosabatlari kirishishiga olib kelgan. Shu tariqa qishloq xo'jaligi hamda shahar madaniyati yuksala borgan. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz emas.

Demoqchimizki, xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan millat sanaladi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini -

oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

Xullas, mustaqillikning dastlabki kunlaridan e'tiboran xalqimizning xotirasini tiklash, qadimgi urf-odat va qadriyatlarini e'zozlash, muqaddas qadamjolarini asl holiga qaytarish yuzasidan chinakam tarixiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu keng ko'lamlı jarayon birgina o'zbek millatining tili, dini va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning qadriyatlariga yuksak hurmat ko'rsatish bilan uzviy tarzda olib borilmoqda.

2.3. O'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi va axloqiy kamolotida xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq davlat o'tmish madaniy merosimizni qaytadan tiklash, odamlarning qalbida tutqunlikda yotgan qadriyatlarga keng yo'l ochish siyosatini amalga oshirdi. Har bir tadbir o'zining amaliy yechimiga ega bo'lishi bilan birga xalqqa ozodlik shabadasini yetkazish maqsadini ko'zlagan holda amalga oshirildi. Millat o'tmishi va kelajagi haqidagi mulohazalar, ajdodlarimiz kashfiyotlaridan hosil bo'lgan g'urur tuyg'usi o'zbekning qalbidan o'rin ola boshladi: din, madaniy meros, qadriyatlar, milliy g'urur haqida hadiksiramay, baralla mulohaza yuritish imkoni yaratildi.

Aslida, o'zbeklarning dunyoda ilg'or madaniyatga ega bo'lgan xalq ekanligini tasdiqlovchi fikrlar mustabid tuzumda ham aytilgan edi. Ammo bunday hur gaplarning mualliflari qatag'on qilingandilar. Ularning ko'pchiligi - Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, Otajon Hoshim va boshqalar otildi. Ayrimlari - Usmon Nosir, keyinchalik Mirtemir, Said Ahmad, Maqsud Shayxzoda kabilar uzoq muddatga qamoq jazosiga tortildilar. Ammo erkinlikni, o'tmishdagi xalq allomalarining kashfiyotlarini targ'ib etuvchi asarlar tizimi to'xtab qolmadi. 60-70-yillar adabiyotimizning she'riyat maydoniga yosh ijodkorlar sifatida kirib kelgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi shoirlar "O'zbekim", "O'zbekiston" kabi lirik asarlar yaratdilar, bu davrda yashagan yurtdoshlarimiz O'zbekiston qadimdan

ilm-ma'rifat, kashfiyotlar va qadriyatlar yurti ekaniga komil ishonch bildirib boshlagandilar.

Vatanimizning mustaqil deb e'lon qilinishi va o'nlab mamlakatlar tomonidan bu mustaqillikning tan olinishi o'tmish qadriyatlarimizga bo'lgan munosabatda yangi davr ochdi. Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'zbekiston buyuk kelajak sari" asaridagi "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari" deb atalgan bo'limda: "O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi", - deyilgan. "Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlik"¹², - deb belgilab qo'yilgan.

Mazkur bo'limning davomida: "Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir", - deb ko'rsatib o'tiladi. Ma'naviy ruh xalq qadriyatlarini qadam-baqadam o'zlashtirishda namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi esa asrlar davomida qadriyatlarimizning tarkibiy qismi hisoblangan. Shuning uchun akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'zbek xalq og'zaki ijodini alohida fan sifatida o'qitila boshlangani og'zaki ijodimizga va qadriyatlarimizga davlat maqomini berish bilan teng tadbir sifatida ta'kidlash mumkindir.

Xalq ijodi haqida gapirilganda uning xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati, an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi (musiqa folklori), xalq teatri, xalq o'yinlari, qo'g'irchoqbozlik, dor va yog'och oyoq o'yinlari, xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyot turlari haqida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, yaratilishi va ijodiy jarayonida ko'pchilikning ishtiroki bo'lgan xalq ijodining turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib, doimiy ravishda mukammallashib, sayqallashib, tobora

¹² Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., "O'zbekiston", 1998, 56-bet

an'anaviylashib borgan va nihoyat, kasbiylik (professionallik) xususiyatiga ega bo'lgan, jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan. Shuningdek, xalq ijodining bir qator qadimiy namunalari yozma manbalarda, tarixchi va yozuvchilarning asarlarida, qoya toshlarda (Sarmishsoy, Zarautsoy rasmlari kabi), arxeologiya va arxitektura yodgorliklarida, uy-ro'zg'or buyumlarida saqlanib kelgan.

Xalq ijodi namunalarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, e'tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan histuyg'ulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon haqidagi o'yfikrlari o'z ifodasini topgan. Xalq ijodi qadimdan rivojlanib kelgan. Jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchaya borishi bilan xalq ijodi janrlariga nisbatan ayrim iste'dodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar, masharabozlar, qiziqchilar, qo'g'irchoqbozlar, raqqoslar, mashshoqlar, naqqoshlar, kulollar, o'ymakorlar, kashtado'zlar va boshqa san'at turlari yuzaga kelgan, korfarmon va ishboshilar paydo bo'lgan. Ammo uning yaratilishi va o'zlashtirilishida ko'pchilikning ishtiroki, har bir ijro yoki amaliyot qadimdan qaror topgan mustahkam an'analar doirasida voqe bo'lishi saqlanib kelgan. Har qanday badiha, ijodiy xatti-harakat, yangilik barqaror an'analar va ustoz-shogird munosabatlari doirasida ro'y bergan. Bir tomondan, an'analarning o'zi rivojlana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro yoki amaliyot davomida o'zgartirishlar, yangiliklar kiritilgan, yangi asarlar, variantlar yuzaga kelgan. Qay birlari unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan.

Xalq ijodi namunalari orasida xalq og'zaki badiiy ijodi, ya'ni folklor muhim o'rin tutadi. Inson nutqi shakllanishi bilan xalq og'zaki badiiy ijodining qadimiy tur va janrlari ham qorishiq holda yuzaga kela boshladi. Kishilik badiiy tafakkurining turli shakllarini o'z ichiga olgan bu sinkretik ijod namunalari ibtidoiy inson maishiy hayoti va faoliyatining barcha jihatlarini bilan mahkam bog'langan bo'lib, qadimiy odamlarning diniy e'tiqodiy va mifologik qarashlarini, boshlang'ich ilmiy (empirik) bilimlarini, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan. Biroq qadimiy folklorning bunday namunalari bizgacha yetib

kelmagan, balki ularning izlari va ayrim qismlari xalqning yashash va turmush tarzi bilan bog‘liq turli tuman tasavvur va qarashlarida, xalq urf-odatlarini, udumlari, marosimlari, bayramlari tarkibida, ba’zi bir yozma manbalarda, keyingi davrlarda yozib olingan folklor asarlarida qoldiq holdagina saqlanib qolgan [32].

Yozuvning yuzaga kelishi natijasida xalq og‘zaki badiiy ijodi bilan tarixan bog‘liq adabiyot ham paydo bo‘ldi. Badiiy matnning ayrim ijodiy (yozuvchi, shoir, dramaturg) faoliyat bilan bog‘lanishi, muayyan ijodiy harakat sifatida yozuv bilan mustahkamlanishi adabiyotning asosiy xususiyati bo‘lib, insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotidagi o‘ziga xos burilish nuqtasidir. Adabiyot o‘zining taraqqiyoti davomida folklordan barcha estetik tushunchalar va badiiy shakllarni olganligiga qaramay, o‘ziga xos badiyat qonuniyatlari asosida mustaqil ravishda rivojlana bordi. So‘z san‘atining mustaqil turi sifatida folklor ham u bilan birgalikda yonmayon yashab keldi. Chunki kishilik jamiyatining umumiy estetik talabi va ehtiyoji uzoq yillar davomida faqat adabiyot bilan emas, balki folklor bilan ham mustaxkam bog‘liq bo‘ldi. So‘z san‘ati bu 2 turining mustaqil rivoji, adabiyot va folklor asarlari yaratilgan ijtimoiy muhitdagi farqlar, ijodiy jarayonning xilma xilligi ularning o‘zlariga xos spetsifik xususiyatlarini yanada kuchaytirdi. Natijada adabiyot va folklor o‘zlariga xos muayyan estetik tizim, janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlarga ega bo‘lgan so‘z san‘atining mustaqil 2 turi – og‘zaki va yozma turi sifatida rivojlanishda davom etdi.

Xalq og‘zaki badiiy ijodining deyarli barcha janrlari turli tuman ijrochi va ijodkorlar faoliyati bilan bog‘liq. Iste’dodli ijodkorlar folklor namunalarini saqlab qolish va keng ommalashtirish bilan birga og‘zaki an‘analar doirasida uni yanada mukammallashtiradilar, ba’zan yangilarini ham yarata oladilar. Biroq bunda barqarorlashgan va qat’iylashgan jamoaviylik an‘analari yetakchilik qiladi. Ayrim janrlar (masalan, topishmoq, maqol kabi) ommaviy harakterga ega bo‘lsa, ya’ni ularning namunalaridan har bir kishi ozmi ko‘pmi ayta olsa, boshqalarining (masalan, doston, og‘zaki drama singari) ijrosi muayyan tayyorgarlikni talab qilgan. Shu tariqa xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalarini yaratish va ijro etishda o‘ziga xos kasbiy ijodkorlik yuzaga kelgan. O‘zbek folklorida ijodkor va

ijrochilarning kasbiylashuvi nihoyatda rivojlangan. Baxshilar, ertakchilar, askiyabozlar, qiziqchilar, dorbozlar ijrochiligi professional san'at bo'lib, uni egallash uchun bo'lg'uvchi ijodkor maxsus tayyorgarlik ko'rishi va muayyan ustozdan ta'lim olishi zarur bo'lgan.

Afsona, rivoyat, lof, latifa, maqol, topishmoq, ertak, doston, qo'shiq, askiya, og'zaki drama va boshqalar xalq og'zaki badiiy ijodining asosiy janrlari bo'lib, ular so'z san'ati namunalari bo'lish bilan birga muayyan ijtimoiy maishiy funksiyalarni ham ado etadilar. Masalan, xo'p mayda, ho'shho'sh, tureyturey, chureychurey kabi qo'shiq turlari mehnat jarayonlariga aloqador bo'lsa, yor-yor, o'lan, lapar, kelin salom, yig'i yo'qlov, sust xotin singarilar har xil marosimlar bilan bog'liqdir. Folklor janrlari g'oyaviy badiiy xususiyatlari bilan emas, balki ijro usullari (yakka ijrochilik, jamoaviy ijrochilik, sozli, sozsiz kabi) jihatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ularning biri kuylash uchun, ikkinchisi aytib berish, hikoya qilish uchun, boshqasi ko'rsatish, namoyish etish uchun yoki ham kuylash, ham o'ynash, ham aytish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Folklor janrlari qanchalik xilma xil, ba'zan o'ta funkcionallashgan va qat'iy vazifador bo'lishiga qaramay, ular yaxlit badiiy tizimni tashqil etadi [20,163-165].

Har bir inson bolaligidan boshlab o'zi bilmagan holda katta odamlarning e'tibori qaratilgan mo'jizaviy mavjudotga aylanadi. Kattalar unga ism qo'yadilar, beshikka belaydilar, allalar aytadilar, qo'lchalariga ovoz chiqaruvchi o'yinchoqlar tutqazishadi. Bir oz gap eshitadigan bo'lgani zahoti ovunmashoqlar aytishadi. Keyinchalik esa farzand topishmoqlar, ertaklar, qo'shiqlar olamiga kirib xalq rasm-rusumlari, og'zaki ijodi og'ushida ulg'aya boradi. Agar allalar, ertaklar uning ma'naviy dunyosini boyitsa, turli o'yinlar: quvlashmashoq, bekinmashoq, chillak, varrak uchirish kabilar jismonan chiniqtirgan. Yosh bolalar alohida e'tiborga loyiq xalqlarda esa ular uchun maxsus badiiy so'z namunalari yaratilgan. O'zbeklar ana shunday xalqlar qatoridan munosib o'rin oladilar. Tez aytishlardan tortib allalargacha, topishmoqlardan tortib sanamashoqlargacha bevosita yosh avlod tarbiyasiga bag'ishlangan bolalar folklori janrlarini, namunalarini tashkil etadi.

O‘zbeklar bolalar folkloriga oid asarlarni bir necha asrlar oldinoq hozirgi zamon pedagogikasi talablarini his etgandek yaratganlar. Odatda bolalar folklori bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. U folklor janrining tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbek bolalar folklori alla, ertak, ermaklar, tez aytish, topishmoq, bolalar o‘yin qo‘shiqlari, erkalama, masharalama va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o‘yiniga, qo‘shig‘iga moslangan bo‘ladi. O‘zbekistonda bolalar folklori namunalari to‘plam holida 1932 yildan nashr etila boshladi. Kattalar tomonidan yaratiladigan alla, ovutmachiq va erkalamalar onalar mehr-muhabbati bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, ularda go‘dakning istiqboliga oid orzu-umidlar, bola yashayotgan muhit o‘z ifodasini topadi. Bolani belash, o‘tqazish, atakchechak yurgizish, sakratish, o‘ynatish va ovutishlarda “Toy-toy”, “Bordi-bordi” va boshqa ovutmachiqalar aytiladi.

Bola tug‘ilgani zahoti dunyodagi eng mehr bilan aytiladigan qo‘shiqni eshitadi. Alla ana shu qo‘shiq hisoblanadi. Sevimli shoirimiz Cho‘lpon alla haqida shunday degan edi: “Bir bola uxlamasa, alla aytadilar. Bola tez uxlab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his qilur”. Bu ifodada allaning eng muhim fazilati - bola ruhiga ta’siri aks etgan. Keksalarimiz allaning sadolari bola ruhiga iymon, vataniga muhabbat, xalqiga hurmat, o‘zi tug‘ilgan oilaga izzat bo‘lib quyilishini ko‘p aytganlar. Alla atamasi olimlarning ta’kidlashlaricha, ovutib uxlatish ma’nosini berar ekan. Ayni chog‘da bu so‘zning “Alloh”dan olinganligi ham ta’kidlanadi [32].

Bolalar folklorlari ichida bolalar qo‘shiqlari muhim o‘rin tutadi. Ularning ko‘plari yil fasllari bilan bog‘liq. “Boychechak”, “Oftob chiqdi olamga”, “Chittigul”, “Laylak keldi, yoz bo‘ldi”, “Qurbaqa”, “Qaldirg‘och” kabi qo‘shiqlarni bolalar tom boshida, dalalarda, qishloq ko‘chalarida aytishadi. Ular bahor kelishi, yomg‘ir yog‘ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog‘liq. “Bu bog‘chada olicha”, “Zuvzuv borag‘on”, “Chamandagul”, “Oq sholi, ko‘k sholi” va boshqa qo‘shiqlar turli davrda aytilaveradi. Ularda ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, hunar va san’at

bilan bog‘liq mehnat jarayonlari, kattalar xatti-harakatlariga taqlid aks etadi [25,32].

O‘yinlar ham, qo‘shiqlar ham bolalarning aqliy va jismoniy kamolatga yetishiga yordam beradi, ularda zavq uyg‘otadi. O‘yinlar bolalar folklorining murakkab turi bo‘lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O‘yinlarni kichik yoshdagi bolalar “Choriy chamber”, “Hakkalakam” kabi sanama o‘yinidan, katta bolalar “Qushim boshi” degan topishmoqdan boshlaydi. Bolalar bog‘chalari, maktablarda o‘yinlardan keng foydalaniladi. Bolalar folklori yosh avlodni intizomli, jasur, qat’iyatli, qiyinchiliklarni yengishga, o‘rtoqlariga yordam berishga tayyor bo‘lish singari yaxshi sifatlarga ega bo‘lib o‘sishlariga yordam beradi. Uning ayrim namunalari maktab darsliklari va o‘qish kitoblariga kiritilgan. Bolalar o‘yin qo‘shiqlari folklor janrining bir turi hisoblanadi. U bolalar o‘yini jarayonida aytiladi. Bolalar o‘yin qo‘shiqlari bolalar o‘yining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘yin uchun zamin, kayfiyat hozirlaydi, ishtirokchilar harakatini to‘ldiradi, dramatik holatni yuzaga keltiradi.

O‘zbek bolalarining ko‘plab an’anaviy o‘yini ko‘shiqlari bor. Odatda, bolalar o‘z o‘yinlarini chek tashlash yoki sanamalar (“Bir, ikki ...o‘n olti”, “Choriy chamber” va boshqalar), shuningdek “O‘rta qo‘l topish”, “Guldur gup” va boshqalar yordamida boshlaydilar. O‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida “To‘p”, “To‘p tosh”, “Chittigul” kabi o‘yinlar keng tarqalgan va o‘ziga xos qo‘shiqdari ham bor. Bolalar o‘z davrasida ularni aytish orqali qo‘shiqchilik mahoratini namoyish etadilar, akalari, kelinoyilari va boshqalarni tasvirlaydilar. Koptok o‘yinida aytiladigan qo‘shiq koptokning yer yoki devorga urilishiga hamohang bo‘lib, u orqali yutuqlar soni hisoblanadi. Harakat va ovozning ritmik birligi o‘ziga xos musiqiylik yaratib, bolaning o‘yin holatidagi kayfiyatini ifodalaydi. Unda ma’lum tarixiy davr, bolalar o‘sayotgan sharoit, oilaviy muhit va bunga ularning munosabati, shuningdek kayfiyat va kechinmalari yaqqol sezilib turadi [20,29].

Bolalar o‘rtasida keng tarqalgan “Oq terakmi, ko‘k terak?”, “Chuchvara qaynaydi”, “Tepdim, sandiq ochildi”, “Dumsiz tulki”, “Quyoning, quyoning, ne bo‘ldi” kabi o‘yin va ularning qo‘shiqlari O‘zbekistonning turli joylarida turlicha

nomda uchrasa ham, mazmuni asosan bir xil. Bolalarning o‘zaro muomala madaniyatining oshishi, kirishimlilik, dilkashlik kabi fazilatlarining shakllanishi, shuningdek xam jismoniy, ham ma’naviy o‘shida bunday qo‘shiqalar muhim ahamiyatga ega [25,46].

Bolalar o‘yinlari ularni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Bolalar o‘yinlari bolalarning har tomonlama kamol topishiga katta ta’sir qiladi. O‘yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va boshqa ruhiy jarayonlar ishtirok etadi. Bolalar o‘yinlarining 3 asosiy xususiyati bor. Birinchidan, bola o‘yin faoliyatini erkin, o‘z xohishi bilan bajaradi. Ikkinchidan, mazkur faoliyatning ijodiy va faolligidir. Uchinchidan, o‘yin harakatlarining jo‘shqinligi: bola o‘yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, unda o‘rtoqlik hissi kuchayadi va hokazo.

Bolalar folklorining yana bir janri ertaklardir. Tabiiyki, bu ertaklar kattalar folkloridagi namunalardan syujetdagi va tildagi soddalik bilan ajralib turadi. Ularning matnlari ham hajm jihatdan qisqa bo‘ladi. Ishtirok etadigan qahramonlar – obrazlar esa ko‘pincha hayvonlardir. Kattalar yosh bolalarga bag‘ishlangan ertaklar orqali bir qator maqsadlarni nazarda tutganlar. Jumladan, bunday ertaklar bolalarni ovutishga, ayrim yovvoyi va uy hayvonlari, qushlar haqida ma’lumot berishga, ularning nutqini o‘stirishga, uxlashdan oldin tinch-sokin kayfiyatni hosil qilishga qaratiladi. Boladagi ezgulikka intilishni shakllantiradi, rivojlantiradi.

Ertak xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri sifatida to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar hisoblanadi. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-g‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g‘ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo‘lib, syujet voqealarining asosini tashqil etadi, syujet chizig‘idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta’minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta’limiy estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o‘ziga xos badiiy

tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea va hodisalarni hayotda bo‘lishi mumkin bo‘lmagan yoki mavjud bo‘lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi.

Ertak janri obrazlar talqini, g‘oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o‘rni va vazifasi, tili va uslubiga ko‘ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklarlar, hajviy ertaklar bo‘linadi. Hayvonlar haqidagi ertaklarning bir turi majoziy ertaklardir. Majoziy ertaklarning (“Susanbil”, “Bo‘ri bilan tulki”, “Tulkining taqsimoti”, “Ikki boyqush” va boshqalar) syujeti asosida ko‘chma ma‘no, allegorik obrazlar yotadi. Masalan, laqmalik va qonxo‘rlik bo‘ri orqali, ayyorlik va tilyog‘lamachilik tulki orqali ifodalangan.

Sehrli ertaklarda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan bo‘ladi. Bularda pahlavonlik va qahramonlik madh etiladi (“Yalmog‘iz”, “Semurg”, “Devbachcha”, “Kenja botir” va boshqalar). “Quloqboy”, “Handalak polvon”, “Uch yolg‘onda qirq yolg‘on” va boshqa ertaklar komik, ba‘zilari hatto hajviy xarakterga ega. Masalan, “Uch yolg‘onda qirq yolg‘on”da bosh qahramon xalq orasida shuhrat topgan kal bo‘lib, bu komik qahramonning “yolg‘on to‘qishi”dan zulm va jaholat, adolatsizlik kabi mavjud tuzumga xos illatlar qoralanadi, kishilardagi donishmandlik, tadbirkorlik kabi fazilatlar ulug‘lanadi[32]. Maishiy ertaklarda ko‘proq zulm va adolatsizlik qoralanadi (“Uch og‘aini botirlar”, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Tohir va Zuhra”, “Farhod va Shirin”, “Zolim podsho” va boshqalar). Masalan, “Uch og‘aini botirlar” ertagi odatdagidek ota nasihati bilan boshlanadi. Bunda ota kambag‘al, lekin hayot tajribalariga boy bo‘lgan shaxs, boshqa variantlarida esa shoh bo‘lib, o‘g‘illari shahzodalardir. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi, odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar ko‘rinsa, shahzodalar qiyofasida mol-mulk to‘plash yo‘lida har qanday yomon niyatlardan qaytmaydigan yolg‘onchi, johil kishilar obrazi gavdalangan.

Bilamizki, ertakka qiziqmaydigan, uning sehrli olamiga maftun bo‘lmagan bola topilmasa kerak. Ertak bolalarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, saxiylik, rostgo‘ylik ruhida tarbiyalashi bilan muhimdir. Ertaklardagi chuqur g‘oya, yuksak insoniy fazilatlar, shu darajada bolalar ruhiga mos tarzda, mantiqiy

izchillikda, jonli voqealarda, qiziqarli tarzda hikoya qilinadiki, bola butun vujudi bilan uni eshitadi, chin dildan ishonadi. Shu o'rinda bir misol: "Zumrad va Qimmat" ertagida Zumrad sehrigar kampirning uyiga keladi, yaxshi yashay boshlaydi, o'gay ona zulmidan qutuladi, go'yo hamma orzular amalga oshgandek, ammo... o'z uyi tomini ko'rganida yig'lab yuboradi. Shu tariqa muallif - xalq o'ta donolik bilan ertak tagmatnida Vatanni hech qanday boylikka, huzur-halovatga almashtirib bo'lmasligini ta'kidlab o'tadi [20,64-65].

Topishmoq, topmacha, jumboq, matal - xalq og'zaki poetik ijodining eng qadimiy va ommaviy janri hisoblanadi. U jahondagi barcha xalqlar folklorida uchraydi. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi madaniyati, urf-odatlari ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Topishmoqda yechilishi mumkin bo'lgan so'roq majoziy shaklda ifodalanib, uning ma'nosi yashirincha bo'ladi. Topishmoqda narsa yoki hodisa boshqa narsa yoki hodisaga o'xshatish, o'zaro qiyoslash, taqqoslash orqali gavdalantiriladi.

Topishmoqlar ba'zan nasriy, ko'pincha she'riy shaklda, kompozitsion va ritmik jihatdan ixcham, sodda va ohangdor bo'ladi. Macalan, "Bir parcha patir, olamga tatir" (oy); "Oppoq dasturxon yer yuzini qoplagan" (qor); «Past osmondan qor yog'ar" (elak). Ayrim topishmoqlar maqol xususiyatiga ham ega bo'ladi. Macalan, "Hammaga to'n tikaman, o'zim yalang'och" (igna). Topishmoqda metafora, o'xshatish, mubolag'a, sifatlash, takror kabi ifoda vositalari keng foydalaniladi. Macalan, "O'zi bir qarich, soqoli qirq qarich" (igna), "Yer tagida oltin qoziq" (sabzi), "Zilzil gilam, zil gilam, zildan ham og'ir gilam" (yer) kabi[20,42].

Topishmoq aytish, asosan, bolalarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi tushunchalari va tasavvurlarini, idroki va mulohaza qobiliyatini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi. Topishmoqdan doston va ertaklarda keng foydalaniladi. "Oshiq Oydin", "Oshiq Alvand", "Xirmon Dali", "Yozi bilan Zebo", "Alpomish" va boshqa dostonlarda, "Podsho bilan donishmand chol" ertagida topishmoqlardan namunalari bor [20,43].

Maqol xalq ogʻzaki ijodi janri boʻlib, qisqa va loʻnda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal maʼnoli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gapdir. Maqollar muayyan ritmik shaklga ega boʻlib, ularda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuygʻulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Maqollar asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar baʼzan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli soʻz, tanbeh, mashoyixlar soʻzi, hikmatli maqol, donishmandlar soʻzi, otalar soʻzi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab Maxmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir xam oʻzbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Masalan, Maxmud Koshgʻariy asarida “Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin”; “Odam olasi ichida, mol olasi tashida” kabilar uchraydi [20,33].

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil boʻlib, gʻoyat katta ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jumladan, Vatan, mehnat, ilm-hunar, doʻstlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan. Maqollar uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, koʻp hollarda qofiyadoshlik, baʼzan koʻp maʼnolilik, majoziy maʼnolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterlidir. Maqollarda antiteza hodisasi koʻp uchraydi (masalan, “Kattaga hurmatda boʻl, kichikka izzatda boʻl” va boshqalar) [32].

Maqollar tafakkur durdonasi hisoblanib, xalq tilidan olingan, asrlar osha ixchamlashgan, moʻjazgina maʼnolar xazinasi boʻlib, bolalarga tarbiya berishda oʻz qudratiga ega. Bola oʻz nutqida qanchalik koʻp maqol ishlatsa, unga nisbatan tengdoshlarining eʼtibori, hurmati oshadi. Xalq maqollarida dono xalqimizning turmush tarzi, oʻy-xayollari, orzu-umidlari mujassam. Dunyoda qaysi bir xalq, millatni olib qaramaylik, tarbiya jarayonida xalq ogʻzaki ijodining namunasi hisoblangan maqollarga murojaat etishadi. Shu bois, bolalarni, jumladan maktabgacha tarbiya yoshidagi oʻgʻil-qizlarni maʼnaviy jihatdan barkamol etib tarbiyalashda maqollarning ham oʻz oʻrni va roli bor.

Bashariyat bosib o'tgan o'tmishi davomida ham bizga ma'lumki, farzand tarbiyasida maqollar asosiy qurollardan biri bo'lib kelgan. Maqollar boshqa xalq og'zaki ijodi namunalaridan ishlatilish doirasi chegaralanmaganligi bilan ajralib turadi. Bolalar ma'naviy yetuk kishilar ta'sirida bo'lsagina, ularda vatanparvarlik, vafodorlik, kamtarlik, to'g'riso'zlik, ilm va hunar egallashga bo'lgan intilish hislari kurtak yoza boshlaydi va ular ham kelajakda ana shunday insonlar toifasiga kirishlari uchun astoydil harakat qilishadi. Kichik yoshdagi bolalar o'zlari o'qigan, eshitgan va yod olgan maqollarini o'z dunyosida talqin qilishadi. Demak, ular bevosita fikrlashga, mushohada qilishga harakat qilishadi. Natijada ularning nutqi o'sish bilan bir qatorda, so'z lo'g'ati jozibador va dilxush so'zlarga boyib boradi.

Bolalarda ijobiy xarakter xislatlarini shakllantirishda ota-onalar, murabbiylar, umuman, kattalar tomonidan aytib beriladigan afsona, rivoyat va dostonlarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, afsona xalq og'zaki ijodi (folklor) janrlaridan biri bo'lib, u xayolot, uydirma va to'qimadan iborat bo'ladi. Afsonada voqea va hodisalar so'zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hatto bo'lib o'tgan davri, makon ham ko'rsatiladi. Afsonalar og'izdan-og'izga, eldan-elga o'tib kelgan, ifoda usuli bayon tarzida amalga oshiriladi.

Afsona og'zaki hikoyat bo'lib, u xayoliy obraz yoki tasavvur asosiga quriladi, hikoya qiluvchilar va tinglovchilar tomonidan qachonlardir shunday bo'lgandek qabul qilinadi. Rivoyatdan farqli o'laroq afsona zaminida albatta mo'jiza, sehr-jodu bo'ladi. Afsonalar olam (Yer, Quyosh va boshqa sayyoralar yuzaga kelishi) haqida, toponimik (Qof tog'i, daryo, dengiz, shahar, qal'a, qishloq, tepalik, Eram bog'i va hokazo), elatlarning kelib chiqishi (masalan turkiy xalqlarning), hayvonot dunyosi (masalan, sher, ajdaho, anqo, semurg' va boshqalar)ga oid, tabiatdagi voqea, hodisalar (masalan, chaqmoq, zilzila, shamol va boshqalar) xususida, tarixiy shaxslar (masalan, turkiylardagi Er To'nga, To'maris, Shiroq, anglosakslar qiroli Artur va boshqalar) to'g'risida, diniy (masalan, islomdagi Nuh payg'ambar xususidagi, Abu Muslim jangnomasi, Avestodagi Frangrasyan (Afrosiyob), xristianlikdagi Iso Masihning havoriylari

bilan sayohatiga bog‘liq voqea-hodisalar) va boshqa turli-tuman mavzularda bo‘ladi [32].

Demak, afsonalar xalq og‘zaki ijodining epik turidan biri ekan. Ularda tasvirlangan voqealar asosan ijodiy to‘qimalar zaminida yaratiladi. Bu janr namunalariga aytib beruvchi shaxs asar mazmunini saqlagan holda ma‘lum o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Afsonalarda mazmun jihatidan xilma-xil voqealar hikoya qilinadi. Bu jihatdan ular asotiriy voqealarni, kosmogonik jismlarni, o‘rin-joy nomlarini, odatlarni izohlovchi turlarga bo‘linadi. Ular xalqimiz tarixini o‘rganishda turli urf-odatlar, rasm-rusumlar, an‘analarni sharhlashda, joy nomlarini izohlashda muhim ahamiyatga ega.

Doston poema liro-epik janr bo‘lib, o‘zbek xalq, og‘zaki ijodi va o‘zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan. Jahon mumtoz adabiyotidagi dostonlar keng qamrovligi va hajmining kattaligi, ko‘tarib chiqqan ijtimoiy, siyosiy, axloqiy muammolari, syujetining sertarmokligi va drammatizmining o‘tkirliigi, personajlarining ko‘pligi bilan ajraladi. Bunday asarlar markazida jamiyat va xalq taqdiri turadi, jamiyat, xalq va qahramon yaxlit, bir butunlikda tasvirlanadi, ular o‘rtasida ziddiyat bo‘lmaydi, balki shu xalq, shu qahramon bilan tashqi dushmanlar o‘rtasidagi kurash, yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi ziddiyat tasvirlanadi. Ularda vatanparvarlik, qahramonlik, insonparvarlik, mehr-muhabbat, do‘stlik va sadoqat, mehnatsevarlik g‘oyalari ilgari suriladi [20,110-112].

Dostonlar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, qahramonlik (“Alpomish”, “Farhod va Shirin”), sarguzasht-detektiv (“Sabbai sayyor”), ishqiy-romantik (“Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”), jangnoma (“Yusuf va Ahmad”, “Saddi Iskandariy”), tarixiy-memuar (“Shayboniynoma”, “Jizzax qo‘zg‘oloni”), falsafiy (“Hayrat ul-abror”), fantastik-allegorik (“Lison ut-tayr”), didaktik (“Qutadg‘u bilig”) turga bo‘linadi.

“Alpomish” o‘zbek xalq qahramonlik dostoni bo‘lib, u bundan ming yil oldin turkiy xalqlarning qadimiy dostonchilik an‘analari asosida xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida yaxlit doston shaklini olgan bo‘lsada, aslida “Alpomish” dostonining eng qadimiy qatlamlari miloddan avvalgi yuz yilliklarda yurtimizda

kechgan jarayonlarning badiiy talqinini o‘zida aks ettirgan. Qo‘ng‘irot qabilasining turli hududlarga siljishi va ularning yangidan shakllanayotgan xalqlar tarkibiga kira borishi natijasida doston boshqa urug‘ va elatlarga ham o‘tib, ularning epik an‘analari asosida qayta ishlana borib, juda keng tarqaldi va nihoyat, uning yaratilishida ota-bobolari ishtirok etgan har bir xalqning o‘z eposiga aylandi.

Umuman olganda, dostonlar xalq og‘zaki ijodidagi epik asarlar xazinasidagi o‘ziga xos murakkab janrdir. Unda xalq tarixiy hayoti, rasm-rusumlari, odatlari, ozodlik uchun olib borgan mashaqqatli kurashlari o‘zining badiiy ifodasini topgan. Xullas, xalq og‘zaki ijodiga oid doston, ertak, qo‘shiq, maqol va boshqa janrlarda ilgari surilgan g‘oyalar asrlar davomida xalqning yosh avlodni tarbiyalash vositasi bo‘lib kelgan. Bugungi kunda milliy mafkuramizni shakllantirish va rivojlantirishda o‘zbek folklori namunalari munosib o‘ringa egadir. Shuning uchun ham og‘zaki ijodga xalq qadriyatlarining tarkibiy qismi sifatida munosabatda bo‘lish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2.4. Tajriba sinov ishlari va uning natijalari tahlili

Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotini Qarshi pedagogika kollejida o‘taganligimiz uchun mavzuga doir tadqiqot ishlarini ham aksariyat qismini kollej talabalari bilan o‘tkazdik. Bundan tashqari tajriba-sinov ishlarida Qarshi shahridagi 7-maktabning o‘quvchilarini ham jalb qildik. Tadqiqot ishlarini olib borish uchun asosan 2 ta (ikkita) guruh tanlandi. Har bir guruh tarkibida 30 nafardan (N =30) o‘quvchilar mavjud. 1 chi guruhni tajriba (eksperiment) guruhi, 2 chi guruhni nazorat (kontrol) guruhi sifatida belgilab oldik.

Dastlabki tajriba ishlari ikkala guruhda ham bir vaqtda o‘tkazildi. (tajribagacha). Keyinchalik tadqiqot ishlari tajriba guruhida muntazam olib borildi. (Pedagogika fanlarini o‘qitishda o‘zbek xalq maqollaridan foydalanish). Tajriba guruhining natijalari esa nazorat guruhi natijalariga qiyoslab borildi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijalarini asosan uch bosqichdagi tekshiruvlarimiz (qiyoslash) asosida aniqladik. Ular quyidagi (1,2,3 jadvallarda) aks etgan.

O‘zbek xalq maqollarini bilasizmi? Maqollardan namunalari keltiring.
(5 minut ichida og‘zaki so‘ralganda)

1-jadval

№	Tajriba o‘tkazilgan guruh	Respondentlar soni N=60	Tajribagacha	Tajriba vaqti (bir oy bo‘lganda)	Tajriba yakunida (ikki oydan so‘ng)
1.	Tajriba guruhi	N= 30	12	23	42
2.	Nazorat guruhi	N= 30	13	14	16

1 – jadvalda aks etgan raqamlardan shu narsa ma’lumki, o‘quvchilarning o‘zbek xalq maqollarini bilishi va ulardan namunalari keltira olish holati tadqiqot ishlari boshlanguncha 5 minut ichida og‘zaki so‘ralganda tajriba guruhidan 12 ta maqolni, nazorat guruhidan esa 13 ta maqolni ayta oldilar.

Tajriba vaqti (bir oydan so‘ng) tajriba guruhi a‘zolari 23 ta, nazorat guruhi a‘zolari esa arang 14 ta maqolni aytdilar. Tajriba yakunida (ikki oydan so‘ng) tajriba guruhi a‘zolari 42 ta, nazorat guruhi a‘zolari esa 16 ta maqolni aytib uddaladilar.

Xuddi shu topshiriq, ya’ni talabalarning o‘zbek xalq maqollarini bilishi va ulardan 5 minut ichida yozma ko‘rinishda yozib topshirishlari so‘ralganda

O‘zbek xalq maqollarini bilasizmi? Maqollardan namunalari keltiring. (5 minut ichida yozma topshirish so‘ralganda)

2- jadval

№	Tajriba o‘tkazilgan guruh	Respondentlar soni N=60	Tajribaga cha	Tajriba vaqti (bir oy bo‘lganda)	Tajriba yakunida (ikki oydan so‘ng)
1.	Tajriba guruhi	N= 30	14	86	150
2.	Nazorat guruhi	N= 30	14	20	24

(guruh a‘zolarining har biri individual yozadi va ularni ya’ni 30 nafar o‘quvchilarni yozgan maqollari to‘planganda) ular tajribagacha tajriba guruhlarida 14 ta, nazorat guruhlarida ham 14 ta maqolni tashkil etdi. Tajriba vaqti (bir oydan so‘ng) esa tajriba guruhi a‘zolari 86 ta, nazorat guruhi a‘zolari 20 ta maqolni yozma ko‘rinishda yozib berishga ulgurdilar. Tajriba yakunida (ikki oydan so‘ng) tajriba guruhi a‘zolari 150 ta, nazorat guruhi a‘zolari esa 24 ta maqolni yozma ko‘rinishda yozib berishga erishdilar. Bundan shu narsa ma’lumki, olib borgan

tadqiqotlarimizning tarbiyaviy samarasi yaqqol koʻzga tashlanadi. Shuningdek, olib borgan tadqiqotlarimizni ilmiy asoslash va samarasini oydinlashtirish maqsadida quyidagicha koʻrinishdagi tadqiqotni ham oʻtkazdik. Aynan oʻsha tajriba va nazorat guruhi aʼzolariga – oʻzbek xalq maqollarini mazmuni – mohiyatini sharhlash (ishtirokchilar % hisobida) topshirigʻi berilganda natijalar quyidagicha boʻldi.

Oʻzbek xalq maqollarini mazmun - mohiyatini sharhlash. (ishtirokchilar % hisobida)

3-jadval

№	Tajriba oʻtkazilgan guruh	Respondentlar soni N=60	Tajribagacha	Tajriba vaqti (bir oy boʻlganda)	Tajriba yakunida (ikki oydan soʻng)
1.	Tajriba guruhi	10% 3 nafar	42% 12 nafar	86,6% 26 nafar	
2.	Nazorat guruhi	10% 3 nafar	16,7% 5 nafar	20% 6 nafar	

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, tajribagacha oʻzbek xalq maqollarini mazmun - mohiyatini sharhlashda tajriba guruhidan 10% (3 nafar) oʻquvchi ishtirok etgan boʻlsa, nazorat guruhidan ham xuddi shunday natija, yaʼni 10% (3 nafar) oʻquvchi ishtirok etdilar. Tajriba vaqti (bir oydan soʻng) esa tajriba guruhidan 42 % (12 nafar), nazorat guruhidan 16,7 % (5 nafar) oʻquvchilar ishtirok etganligi, tajriba yakunida esa, tajriba guruhidan 86,6% (26 nafar) oʻquvchi, nazorat guruhidan 20% (6 nafar) oʻquvchilr ishtirok etganligi kuzatildi. Bu holat tajriba – tadqiqot ishlarimizning toʻgʻri yoʻlga qoʻyilganligini, eng muhimi, pedagogika fanlarini oʻqitishda badiiy adabiyotdan (oʻzbek xalq maqollaridan) foydalanish yoshlar tarbiyasi uchun naqadar ahamiyatli ekanligini koʻrsatdi.

X U L O S A L A R

Biz amalga oshirgan tadqiqot natijalari dastlabki ilmiy farazimizni to'la tasdiqladi va quyidagi umumlashgan xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. O'zbekiston Respublikasining mustaqil deb e'lon qilinishi umumiy ta'lim mazmunini umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida isloh qilishni, yosh avlodni o'zbek xalqining tarixi, madaniy merosi va ma'rifiy an'analari asosida tarbiyalashni taqozo etdi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq davlat o'tmish madaniy merosimizni qaytadan tiklash, odamlarning qalbida tutqunlikda yotgan qadriyatlarga keng yo'l ochish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

2. Avvalo, yurtimiz sivilizatsiyasiga xos qadriyatlar rivojini bu sivilizatsiya tarixida o'chmas nom qoldirgan olim, mutafakkir va allomalarimizning merosini o'rganish bu boradagi xayrli ishlardan biridir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda o'tmish ajdodlarimizning milliy merosini, ayniqsa yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashga qaratilgan boy tajribalarini, ushbu masalaga bag'ishlangan asarlarini, qarashlarini chuqur o'rganish va ulardan bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish imkoniyatini ko'rsatib berish o'ta muhim masalalardan hisoblanadi.

3. Bugun o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yetarlicha e'tibor qaratmaydigan va bu yo'lda o'zining tarixiy, madaniy, axloqiy merosini asrab-avaylashga, ularni boyitishga va ko'paytirishga munosabat bildirmaydigan, har tomonlama uyg'un rivojlangan va mustaqil fikrlaydigan shaxsni kamol toptirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydigan har qanday davlat, jamiyat tarix hamda taraqqiyot yo'lidan chetda qolib ketishi mumkin.

4. O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib, ularga do'stlik, mehmondo'stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchqlik, xushfe'llik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlik, ro'zg'orparvarlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik,

rostgo'ylik, halollik, or-nomuslilik, to'g'rilik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g'urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabilar kiradi. Bugungi kunda bularni yoshlar onggiga singdirish har bir ota-ona va tarbiyachi-murabbiylarning asosiy vazifalaridir.

5. Xalq urf-odatlari, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Odamlarning bir-biriga mehr oqibati, oqilona munosabati, to'g'ri muloqoti, iltifoti, extiromi xalqimizning ichki go'zalligini, boy ma'naviy va ruhiy qiyofasini ifodalaydi. Eng muhimi, xalqimizdagi mehr-muruvatlilik, saxiylik, mehmondo'stlik, xushmuomalalik, mehr-oqibatlilik, andishalilik, samimiylik, to'g'rilik, intizomlilik, mehnatsevarlik, o'zini tuta bilishlik, tejamkorlik, sabr-qanoatlilik kabi his-tuyg'ular va hislatlar bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasida ibrat-namuna vazifasini bajaradi.

6. Xalqimizning boy ma'naviy merosining tarkibiy qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodiyotini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Avlodu-ajdodlarimizning qadim ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, urf-odatlari, an'analari, madaniyati, tili, tarixi badiiy falsafiy jihatdan o'ziga xos tarzda aks ettiriladigan xalq pedagogikasi nihoyatda boy va xilma-xildir. Xalq pedagogikasi xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning manbai topishmoq, matal, qo'shiq, ertak, rivoyat kabilar yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng qadimiy vositalaridir. O'zbek xalq og'zaki ijodining boy xazinasiga ega bo'lib, unda bola tarbiyasi masalalari alohida o'rin egallaydi.

7. Maktab davri inson shaxsi shakllanishidagi murakkab davrlardan biri bo'lib, ularda ijobiy xarakter xislatlarini shakllantirishda afsona, rivoyat va dostonlarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, afsona xalq og'zaki ijodi (folklor) janrlaridan biri sifatida xayolot, uydirma va to'qimadan iborat bo'lsa, dostonlar esa xalq og'zaki ijodidagi epik asarlar xazinasidagi o'ziga xos murakkab janrdir. Unda xalq tarixiy hayoti, rasm-rusumlari, odatlari, ozodlik uchun olib borgan mashaqqatli kurashlari o'zining badiiy ifodasini topgan.

8. Bolalar o‘yinlari ularni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Bolalar o‘yinlari bolalarning har tomonlama kamol topishiga katta ta’sir qiladi. O‘yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va boshqa ruhiy jarayonlar ishtirok etadi. Bolalar o‘yinlarining 3 asosiy xususiyati bor. Birinchidan, bola o‘yin faoliyatini erkin, o‘z xohishi bilan bajaradi. Ikkinchidan, mazkur faoliyatning ijodiy va faolligidir. Uchinchidan, o‘yin harakatlarining jo‘shqinligi: bola o‘yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, unda o‘rtoqlik hissi kuchayadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi("Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori") T.: 1997 y. - 86 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 y. -176 b.
3. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. -T.: Ma'naviyat, 2005 y. -153 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.:O'zbekiston,1997 y. -328 b.
5. Karimov I.A. Buyuk allomaga yuksak ehtirom. Samarqand, 1998 yil, 23 oktabr. Manba: O'zbekiston yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Sharq, - T.: 2000 y. -248 b.
6. Karimov I.A. Olloh qalbizda, yuragimizda.-T.: O'zbekiston, 1999 y.-67 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston,1998 y. -56 b.
8. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. "Tafakkur" jurnali, 1998 y. 2-son, 8-bet.
9. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. -T.: 1992 y. -160 b.
10. Abu Rayhon Beruniy. Tanl.asarlar. 1-t. -T.: 1968 y. -488 b.
11. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. -T.: Fan, 1974.-146 b.
12. Alisher Navoiy. Mahbubul qulub.Tanl.as.to'p.13t. - T.: 1966. -244 b.
13. Boldirev S. Bolalarni tarbiyalashda ibratning roli to'g'risida. -T.: Sharq. 1979 y. -126 b.
14. Jabborov A. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. -T.: Zarfalam. 2006 y. - 48 b.
15. Ibragimova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari. -T.: Avtoref. dis. ped fan. nom. 1998 y. -101 b.
16. Izmaylov A. Narodnaya pedagogika: Pedagogicheskoye vozzreniya narod Sredney Azii i Kazaxstan. -M.: 1991. -256 s.

17. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. -T.: O'qituvchi. 1995 y. -216 b.
18. Imomnazarova M., Eshmuhamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. -T.: Islom Universiteti. 2001 y. -128 b.
19. Imomov K., Mirzayev T., va boshq. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi. 1990 y. -134 b.
20. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: Sharq. 2010 y. – 208 b.
21. Mamatov M.M. Etnopsixologiya. –T.: Universitet. 1999 y. -60 b.
22. Mahkamov U. Ahloq-odob saboqlari. -T.: Fan. 1994 y. -136 b.
23. Ortiqov N. Yosh avlodni muqaddas g'oyalar ruxida tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar. -T.: O'zbekiston., 1995 y. -90 b.
24. Ochilova M. Axloqiy tarbiya. -T.: O'qituvchi. 1979 y. -232 b.
25. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. -T.: Fan. 1986 y. 238 b.
26. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. -T.: Fan va texnologiya. 2012 y. - 138 b.
27. Uzoqov X., G'oziyev E., Tojiyev A. Oila etikasi va psixologiyasi. -T.: O'qituvchi. 1992 y. -128 b.
28. Xayrullayev M. Farobiy va uning falsafiy risolalari.-T.: 1963 y. -284b
29. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va sharq mutafakkiri. -T.: 1971 y. -312 b.
30. Qultasheva Sh. O'zbek xalq pedagogikasida milliy an'alardan foydalanish yo'llari. -T.: Avtoref. dis. ped fan. nom. 2002 y. -226 b.
31. Hoshimov H., va boshq. Pedagogika tarixi. T. O'qituvchi. 1996 y. -488 b.
32. <http://www.ziyonet.uz/uzc/people/> qadriyatlar
33. <http://www.ziyonet.uz/uzc/people/>_pedagogika
34. <http://www.ziyonet.uz/uzc/people/>_Sharq allomalari